

**O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki markaziy
apparati va hududiy bosh boshqarmalaridagi bo‘sh
ish o‘rinlarini butlash maqsadida tashkil etiladigan
tanlovning suhbat bosqichida beriladigan savollar
RO‘YXATI**

Amaliyot departamenti	
1.	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalariga nimalar kiradi?
2.	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga qanday faoliyat turlari bilan shug‘ullanish taqiqlangan?
3.	“Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bo‘yicha valyuta qimmatliklarining ta‘rifi?
4.	O‘zbekiston Respublikasida qaysi idora valyutani nazorat qiluvchi davlat organi hisoblanadi?
5.	Markaziy bank valyuta operatsiyalarini amalga oshirishga doir cheklovlarni qanday holatlarda joriy etadi?
6.	Banklararo vakillik munosabatlar nima maqsadda o‘rnatiladi?
7.	Vakillik hisobvarag‘i orqali qaysi operatsiyalar amalga oshiriladi?
8.	“Nostro” va “Loro” hisobvarag‘i deganda nimani tushunasiz?
9.	Vakillik hisobvarag‘i orqali qaysi operatsiyalar amalga oshiriladi?
10.	Banklararo vakillik munosabatlarida komplayens talablari qaysi maqsadga xizmat qiladi?
11.	Vakillik munosabatlari o‘rnatilishida “due diligence” nimani anglatadi?
12.	SWIFT tizimini to‘liq aks ettiradigan ta‘rifi?
13.	Xalqaro to‘lov tizimlari orqali vakillik munosabatlari doirasida xabar almashish qaysi tizim orqali amalga oshiriladi?
14.	Xalqaro hisob-kitoblarda qullaniladigan hujjatlashtiirilgan to‘lov turlarini ko‘rsating?
15.	Quyidagi to‘lov turlaridan qaysilari xalqaro hisob-kitoblarning asosiy shakllari bo‘lib hisoblanadi?
16.	Qanday valyuta operatsiyalarini bilasiz?
17.	Ichki valyuta bozoridagi chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalar qaysi kurs bo‘yicha amalga oshiriladi?
18.	Moliya vazirligi bilan kelishilgan shartlar asosida faoliyat yuritib, quyidagi hollarda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va davlat boshqaruvi organlarining fiskal agenti sifatida Markaziy bank qanday ishlarni bajarishi mumkin?
19.	Markaziy bankning “Bank hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma”siga (08.02.2023y. 3420-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) muvofiq, bank hisobvarag‘ini ochish bank tomonidan qaysi hujjat asosida amalga oshiriladi?
Axborot texnologiyalari departamenti	
1.	REST API loyihalashda sinxron va asinxron integratsiyaning farqi nima va ular qaysi holatlarda qo‘llaniladi?
2.	Ikki tizim o‘rtasida ma’lumot almashish uchun JSON va XML formatlarini solishtiring. Qaysi holatda qaysi birini tanlagan ma’qul?
3.	Ichki va tashqi tizimlar integratsiyasida "Idempotency" (Idempotentlik) tushunchasi nima va u nima uchun muhim?
4.	FastAPI freymvorkida ma’lumotlarni validatsiya qilish va serializatsiya qilish qanday amalga oshiriladi?
5.	Integratsion yechim uchun "Test ssenariysi" (Test Case) nimalarni o‘z ichiga olishi kerak?
6.	Integratsion yechimning "Texnik pasporti" va "Foydalanuvchi qo‘llanmasi" o‘rtasidagi asosiy farq nima?
7.	O‘z DSt 1985:2018 standarti nima va u qaysi turdagi tizimlarni yaratishda majburiy hisoblanadi?

8.	O‘z DSt 1985:2018 standartiga muvofiq Texnik topshiriq (TEXNIK TOPSHIRIQ) qaysi asosiy bo‘limlardan tashkil topishi kerak?
9.	TTning "Tizimga qo‘yiladigan talablar" bo‘limida qanday kichik bo‘limlar bo‘lishi shart va ular nimani anglatadi?
10.	O‘z DSt 1985:2018 bo‘yicha TTda "Tizimni qabul qilish va nazorat qilish tartibi" bo‘limi nima uchun kerak va u yerda nimalar yoziladi?
11.	TTni ishlab chiqishda "Ma‘lumotlar xavfsizligi talablari"da O‘zbekiston qonunchiligi bo‘yicha qaysi muhim qonun va me‘yorlarga rioya qilinishi kerak?
12.	Normativ-huquqiy hujjat (masalan, Vazirlar Mahkamasi Qarori) loyihasini o‘rganishda IT mutaxassisi nimalarga alohida e‘tibor qaratishi kerak?
13.	Mavjud me‘yoriy hujjat (masalan, vazirlik Nizomi) asosida tizimning funksional talablarini shakllantirish jarayoni qanday kechadi?
14.	Tizim ishlab chiqilib, foydalanishga topshirilgandan so‘ng qanday ichki hujjatlar rasmiylashtirilishi shart?
15.	API integratsiya jarayonida "Rad etish reglamenti" (SLA - Service Level Agreement) texnik hujjatlarda qanday aks ettiriladi?
16.	Transformer arxitekturasini: "Self-attention" mexanizmi qanday ishlaydi va nima uchun u RNN yoki CNN modellari bilan solishtirganda ketma-ket ma‘lumotlarni (matnlarni) qayta ishlashda samaraliroq?
17.	Fine-tuning strategiyasi: Tayyor LLM (masalan, Llama 3 yoki Mistral) modelini ma‘lum bir soha terminologiyasiga moslashtirish uchun LoRA yoki QLoRA usullarini qo‘llashning afzalligi nimada?
18.	Imbalanced Data: Bank skoringi kabi loyihalarda "firibgarlik" (fraud) holatlari juda kam uchraydi (ma‘lumotlar balansi buzilgan). Bunday vaziyatda modelni o‘qitish uchun SMOTE usuli yoki Loss-function‘ga vazn berishdan tashqari yana qanday yondashuvlarni bilasiz?
19.	Feature Engineering: Modelning aniqligini oshirish uchun "Feature selection" (belgilarni tanlash) jarayonida qaysi matematik usullardan (masalan, Mutual Information, SHAP values) foydalanishni afzal ko‘rasiz va nima uchun?
20.	Metrikalar tanlovi: Nima uchun bank tizimidagi xavfni baholashda shunchaki "Accuracy" (aniqlik) yetarli emas? Qaysi holatda biz "Recall"ni, qaysi holatda "Precision"ni birinchi o‘ringa qo‘yishimiz kerak?
21.	A/B Testing: Yangi ishlab chiqilgan AI modelining samaradorligini real foydalanuvchilarda tekshirish uchun A/B testlarni qanday tashkil qilasiz va "Statistical Significance" (statistik ahamiyatlilik) qanday aniqlanadi?
22.	Overfitting vs Underfitting: Model o‘quv ma‘lumotlarida 99% natija berib, test ma‘lumotlarida 70% natija bersa, muammoni hal qilish uchun qanday qadamlarni amalga oshirasiz? Regularizatsiya (L1, L2) qanday yordam beradi?
23.	Gradient Descent: Stoxastik Gradient Descent (SGD) va Adam optimizatorlarining asosiy farqi nimada? Qaysi holatda Adam modelning lokal minimumga tushib qolishini oldini oladi?
24.	RAG (Retrieval-Augmented Generation): LLM modellari "hallucinatsiya" (noto‘g‘ri ma‘lumot to‘qish) qilmasligi uchun RAG tizimini qanday qurasiz? Vektorli ma‘lumotlar bazasi (masalan, Pinecone yoki ChromaDB) bu yerda qanday rol o‘ynaydi?

25.	Model Deployment: Modelni API ko‘rinishida xizmatga tushirishda (Docker yordamida) kechikishni (latency) kamaytirish uchun qanday optimizatsiyalarni amalga oshirish mumkin?
26.	Embeddings: Matnlarni vektor ko‘rinishiga o‘tkazishda Word2Vec va BERT kabi zamonaviy embedding modellarining farqi nimada? BERT qanday qilib so‘zning kontekstdagi ma‘nosini tushunadi?
27.	OCR texnologiyalari: Bank hujjatlarini (pasport, ariza) skaner qilishda qo‘llaniladigan OCR tizimlarida xatoliklarni kamaytirish uchun post-processing (keyingi ishlov) bosqichida qanday AI usullarini qo‘llash mumkin?
28.	Gradient Boosting: XGBoost yoki LightGBM kabi "Ensemble" modellari qanday ishlaydi? Nima uchun ular jadval ko‘rinishidagi ma‘lumotlarda (tabular data) neyron tarmoqlaridan ko‘ra yaxshiroq natija beradi?
29.	Explainable AI (XAI): "Black box" modellari (masalan, Deep Learning) qabul qilgan qarorni biznes egalariga tushuntirib berish uchun LIME yoki SHAP kabi kutubxonalardan qanday foydalanasiz?
30.	Multimodal AI: Matn, tasvir va audio ma‘lumotlarini bir vaqtda qayta ishlay oladigan tizim yaratishda asosiy qiyinchiliklar nimadan iborat deb o‘ylaysiz?
31.	Texnik topshiriq (Texnik topshiriq) nima?
32.	Texnik topshiriq nima uchun kerak bo‘ladi?
33.	Yaxshi yozilgan texnik topshiriq qanday bo‘lishi kerak?
34.	Texnik topshiriq tarkibida qanday bo‘limlar bo‘lishi kerak?
35.	Functional requirement qanday yoziladi?
36.	Non-functional requirementga misol keltiring.
37.	Requirement'larni yig‘ishda kimlar bilan gaplashiladi?
38.	Biznes requirement va texnik requirement orasidagi farq nima?
39.	Agar mijoz requirementni aniq tushuntirmasa nima qilasiz?
40.	Texnik topshiriq yozishda eng ko‘p uchraydigan xatolar qaysilar?
41.	User story nima?
42.	Use case nima va qachon ishlatiladi?
43.	API integratsiyasi uchun texnik topshiriqda nimalar ko‘rsatilishi kerak?
44.	HTTP methodlari (GET, POST) texnik topshiriqda qanday tasvirlanadi?
45.	API response va request misollari nima uchun yoziladi?
46.	Error holatlar texnik topshiriqda qanday ko‘rsatiladi?

47.	Acceptance criteria nima?
48.	Diagrammalar (BPMN, UML) texnik topshiriqda nima uchun ishlatiladi?
49.	Tizim integratsiyasi uchun qanday ma'lumotlar kerak bo'ladi?
50.	Requirement change bo'lsa system analyst nima qilishi kerak?
Ichki audit departamenti	
1.	Ichki auditning asosiy maqsadi nima?
2.	Ichki audit va tashqi audit o'rtasidagi farq nimada?
3.	Audit olami tushunchasi nimani anglatadi?
4.	O'zbekistonda ichki audit faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonun va normativ hujjatlar qaysilar?
5.	Auditorning huquq va majburiyatlariga nimalar kiradi?
6.	Moliyaviy nazorat va ichki audit o'rtasidagi farq nimada?
7.	Xatarga asoslangan audit yondashuvi nima va u qanday qo'llaniladi?
8.	An'anaviy va xatarga asoslangan audit yondashuvi bir-biridan qanday farqlanadi?
9.	Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda auditor qanday yo'l tutishi kerak?
10.	Ichki auditning xalqaro standartlarida ichki audit faoliyatining qanday asosiy tamoyillari keltirilgan?
11.	Tashkilotda ichki audit xizmati faoliyati kim tomonidan boshqarilishi kerak?
12.	Ichki auditning xalqaro standartlariga muvofiq ichki audit faoliyatida qanday odob-axloq qoidolari qo'llaniladi?
13.	Audit tanlanmasi nimani anglatadi va audit tanlanmasini shakllantirishning qanday usullari mavjud?
14.	Ichki audit tadbiri o'z ichiga qanday bosqichlarni oladi?
15.	Ichki nazorat tizimi deganda nimani tushunasiz?
16.	"Uch chiziqli himoya tizimi" nimani anglatadi?
17.	IT-audit tushunchasi nimani anglatadi?
18.	IT-audit obyektlariga nimalar kiradi?
19.	Axborot xavfsizligi tushunchasi nimani anglatadi?
20.	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xatari nima?
21.	Axborot xavfsizligi xatari nima?

22.	Axborot tizimi uzluksizligi nima?
23.	Imtiyozli kirish huquqiga ega tizim foydalanuchilariga kimlar kiradi?
24.	IT-audit sohasidagi eng keng tarqalgan xalqaro standartlarni bilasizmi?
25.	Zaxiralash (backup) va qayta tiklash (recovery) jarayonlarini qanday auditdan o'tkazasiz?
26.	Kirish huquqlarini boshqarish jarayonlari qanday auditdan o'tkaziladi?
27.	"Xatar" tushunchasi nimani anglatadi?
28.	"Qoldiq xatar" (residual risk) va "xos xatar" (inherent risk) tushunchalarining farqini tushuntirib bering.
29.	Xatarlarni boshqarish xizmati asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
30.	Xatarlarni aniqlashning eng samarali usuli qaysi?
31.	Xatarlarni boshqarish jarayoni qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
32.	Operatsion xatar nima? Misollar keltiring.
33.	Reputatsion xatar nima? Misollar keltiring.
34.	Moliyaviy xatar nima? Misollar keltiring.
35.	Xatarlar monitoringi qanday tashkil qilinadi?
36.	Xatar appetiti tushunchasi nimani anglatadi?
37.	Xatarlarni noto'g'ri baholash qanday oqibatlarga olib keladi?
38.	Tashkilotda Xatarlarni boshqarish xizmati faoliyati kim tomonidan boshqarilishi kerak?
Markaziy bank "CERT-CBU" kiberxavfsizlik markazi	
1.	"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunga muvofiq Markaziy bankning vakolatlariga nimalar kiradi?
2.	"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunga muvofiq Markaziy bankning vazifalariga nimalar kiradi?
3.	"To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq Markaziy bankning vakolatlariga nimalar kiradi?
4.	To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi to'lov xizmatlarini ko'rsatishda qaysi shartlarni bajarishi lozim?
5.	To'lov tizimlari operatorlari bankomatlarning axborot xavfsizligini ta'minlash uchun qanday choralarni qo'llaydi?
6.	Bank tizimida shubhali tranzaksiyalarni aniqlash uchun qaysi tizim qo'llaniladi?
7.	Axborot xavfsizligi noxush hodisasi deb nimaga aytiladi?
8.	Kiberxavfsizlik nima?

9.	Bank tizimlarida eng ko‘p uchraydigan kiberxavf turi qaysi?
10.	“Antifrod tizimi” deb nimaga aytiladi?
11.	“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq bank siri nima?
12.	Bank siri qaysi hollarda oshkor qilinishi mumkin?
13.	To‘lov tizimi operatori kim hisoblanadi?
14.	Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik o‘rtasidagi farq nimada?
15.	Banklarda axborot xavfsizligining asosiy tamoyillari qaysilar?
16.	Risk va tahdid o‘rtasidagi farq nimada?
17.	Axborot xavfsizligi risklarini baholash qanday amalga oshiriladi?
18.	Kiberxavfsizlik hodisasi va axborot xavfsizligi insidenti o‘rtasidagi farq nimada?
19.	“Defense in Depth” tamoyili nimani anglatadi?
20.	Axborot tizimlarida zaiflik deganda nima tushuniladi?
21.	Penetration testing va vulnerability assessment o‘rtasidagi farq nimada?
22.	Audit jarayonida loglarni tahlil qilish nima uchun muhim?
23.	Kiberxavfsizlik auditi davomida qanday asosiy hujjatlar tekshiriladi?
24.	SIEM tizimining asosiy vazifasi nimadan iborat?
25.	Ikki faktorli autentifikatsiya qanday xavflarni kamaytiradi?
26.	Fishing hujumlarini aniqlashning asosiy belgilarini ayting.
27.	DDoS hujumining bank tizimlariga qanday ta‘siri bo‘lishi mumkin?
28.	Axborot aktivlarini klassifikatsiya qilish nima uchun zarur?
29.	Risklarni boshqarishda “risk acceptance” nimani anglatadi?
30.	Kiberxavfsizlik siyosati qanday maqsadda ishlab chiqiladi?
31.	Banklarda third-party risk deganda nima tushuniladi?
32.	Banklarda kiberxavfsizlik risklarini baholash metodologiyasi qanday ishlab chiqiladi?
33.	“Risk-based approach” audit jarayonida qanday qo‘llaniladi?
34.	Operatsion risk va kiberxavfsizlik risklari o‘rtasidagi bog‘liqlik nimada?

35.	ISO/IEC 27001 standarti asosida axborot xavfsizligini boshqarish tizimi qanday tashkil etiladi?
36.	Kiberxavfsizlik auditida “audit scope” qanday aniqlanadi?
37.	Antifrod va kiberxavfsizlik tizimlari integratsiyasi nima uchun muhim?
38.	“Residual risk” qanday aniqlanadi?
39.	“Privileged access” management nima uchun muhim?
40.	SOC va CERT faoliyati o‘rtasidagi farq nimada?
41.	Compliance va security tushunchalari o‘rtasidagi farq nimada?
42.	“Single point of failure” qanday xavflarni yuzaga keltiradi?
43.	Audit davomida aniqlangan kritik zaifliklarni prioritetlashtirish qanday amalga oshiriladi?
44.	“MITRE ATT&CK framework” qanday maqsadda qo‘llaniladi?
45.	Bulutli xizmatlaridan foydalanishda qanday kiberxavfsizlik risklari yuzaga keladi?
46.	“Root cause analysis” qanday amalga oshiriladi?
47.	“Risk appetite” va “risk tolerance” o‘rtasidagi farq nimada?
48.	4PCI DSS talablarini bajarmaslik qanday risklarni keltirib chiqaradi?
49.	Zero Trust arxitekturasini qanday afzalliklarni beradi?
50.	“Business Continuity Plan (BCP)” va “Disaster Recovery Plan (DRP)” o‘rtasidagi farq nimada?
Komplayens-nazorat xizmati	
1.	Qaysi normativ-huquqiy hujjatlarda davlat organlari va tashkilotlari tizimida Ichki nazorat tuzilmalarini tashkil etish majburiyligi belgilangan?
2.	Ichki nazorat tuzilmalari faoliyatining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3.	Ichki nazorat tuzilmalari faoliyatining natijadorligi nimaga asosan baholanadi va nazoratni kim amalga oshiradi?
4.	Ichki nazorat tuzilmalari rahbarini lavozimidan ozod etish qanday tartibda amalga oshiriladi?
5.	Ichki nazorat tuzilmalari vazifa va funksiyalari tashkilotning yuridik xizmatiga yuklatilishi mumkinmi?
6.	Ichki nazorat tuzilmalarini tashkilotning ichki audit xizmati bilan birlashtirish mumkinmi?
7.	Ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi va samarali faoliyat yuritishi uchun qanday ichki hujjatlarni qabul qilish zarur?
8.	Ichki nazorat tuzilmasi rahbari (xodimi) tashkilotning mehnat shartnomalariga imzo qo‘yishga haqlimi?

9.	Ichki nazorat tuzilmasi xodimlari normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazadimi?
10.	Ichki nazorat tuzilmasi davlat tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga mas'ul hisoblanadimi?
11.	ISO 37001:2025 xalqaro standarti nima?
12.	ISO 37001:2025 xalqaro standarti talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar nimalardan iborat?
13.	ISO 37001:2025 xalqaro standartiga muvofiq sertifikatlash nima va uning talablari nimalardan iborat?
14.	ISO 37001:2025 xalqaro standarti talablariga muvofqlik to'g'risidagi sertifikat tashkilotlarga nima beradi?
15.	Tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bilan barcha xodimlar tanishtirilishi majburiymi?
16.	Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish asoslari va turlarini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi qaysi normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solingan?
17.	Korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar va korrupsiyaga oid jinoyatlar tasnifi qaysi normativ-huquqiy hujjatda ko'rsatilgan va ular qaysilar?
18.	Tashkilotda manfaatlar to'qnashuvini o'rganishning qanday huquqiy asoslari mavjud? Manfaatlar to'qnashuvini o'rganish va bartaraf etish uchun kim mas'ul?
19.	Tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuvi holatlari to'g'risida xabar berish tartibi qanday?
20.	Tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralari nimalardan iborat?
21.	Tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish tartibi qanday?
22.	Tashkilotlarda aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlariga kim tomondan huquqiy baho beriladi?
23.	Tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuvi qanday boshqariladi?
24.	Tashkilotlar korrupsiyaga oid faktlar to'g'risida xabar berish imkonini beruvchi aloqa vositalarini yaratishi majburiymi?
25.	Tashkilotlarda korrupsiyaga oid faktlar to'g'risida xabarlarini qabul qilish va qayta ishlash, shuningdek boshqa zarur choralarni ko'rishga kim mas'ul?
26.	Tashkilotlarda korrupsiyaga oid xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqishning huquqiy asoslari va tartibi qanday?
27.	Ichki nazorat tuzilmalari tashkilotga kelib tushgan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga oid bo'lmagan boshqa mazmundagi murojaatlarni ham ko'rib chiqishi mumkinmi?
28.	Tashkilotga kelib tushgan korrupsiyaga oid xabarlar (murojaatlar)ni ko'rib chiqish muddati qanday?

29.	Tashkilotning xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qanday dasturlar asosida o'qitiladi?
30.	Qaysi tashkilot davlat xizmatchilarini korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va odob-axloq qoidalarini bo'yicha o'quv kurslarida muntazam o'qitilishi yuzasidan monitoring va amaliy yordam ko'rsatishni olib boradi?
31.	Tashkilot xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish uchun tashkilotning qaysi tuzilmasi mas'ul va ushbu yo'nalishda tashkil etiladigan o'qitish ishlarini kim muvofiqlashtiradi?
32.	Tashkilotga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni korrupsiyaga qarshi tekshirishga qaysi tuzilma mas'ul?
33.	Tashkilotga ishga qabul qilinayotgan nomzodlardan qanday hujjatlar talab qilinishi mumkin?
34.	Tashkilotga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish qachon va necha kun muddatda amalga oshiriladi?
35.	Tashkilotga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirishda qanday ma'lumotlardan foydalaniladi?
36.	Tashkilotga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar to'g'risida o'tkazilgan tekshiruv natijasida to'plangan ma'lumotlar va hujjatlar qancha muddatda va qaysi tuzilmada saqlanadi?
37.	Ichki nazorat tuzilmalari tomonidan tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risidagi hisobotlarni kimga taqdim etadi va taqdim etish muddatlari qanday?
38.	Xizmat tekshiruvlari qanday ma'lumotlarga asosan o'tkaziladi?
39.	Xizmat tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi buyruqda qanday ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak?
40.	Qanday kontragentlarga nisbatan tekshiruv ishlari amalga oshirilmasligi mumkin?
41.	Tashkilot xodimlari tomonidan sovg'alar qabul qilish masalasi qaysi hujjat bilan tartibga solinadi va tashkilotning qaysi tarkibiy tuzilmalari mas'ul?
42.	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash qaysi normativ-huquqiy hujjat asosida amalga oshiriladi? Reyting baholash qanday yo'nalishlar va mezonlar hamda indikator ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi?
43.	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalari xolisligini kim tekshiradi?
44.	Ma'lumotlarning haqqoniyligini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari orqali masofaviy o'rganish jarayonida noto'g'ri yoki soxta ma'lumotlar kiritilganligi aniqlangan taqdirda qanday chora ko'riladi?
45.	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholashda qanday ma'lumotlarni kiritish taqiqlanadi?
46.	Tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning huquqiy asoslari qaysi normativ-huquqiy hujjat bilan belgilangan?
47.	"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunga asosan shaxsiy manfaatdorlik deganda nima tushuniladi?
48.	"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunga asosan korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplarini sanab bering?
49.	Korrupsiya nima?

50.	Manfaatlar to‘qnashuviga ta’rif bering?
51.	“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunga asosan qaysi davlat organlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradi?
52.	Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda qanday choralar ko‘riladi?
53.	Korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchasiga ta’rif bering?
54.	Favoritizm tushunchasiga ta’rif bering.
Litsenziyalash va ruxsat berish tartiboti departamenti	
1.	O‘zbekistonda bank tizimi nechta pog‘onadan iborat?
2.	Quyidagilardan qaysi birlari banklar uchun bevosita taqiqlangan faoliyat turlari hisoblanadi?
3.	Banklar qaysi idora tomonidan ro‘yxatga olinadi?
4.	Aksiyadorlar bankning ustav kapitalidagi qancha miqdordagi ulushni olishdan oldin Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart?
5.	Bank tashkil qilish uchun ustav kapitalining eng kam miqdori qancha bo‘lishi kerak?
6.	Bankning kuzatuv kengashi a‘zolari soni kamida nechta bo‘lishi lozim.
7.	Bankning eng yuqori turuvchi boshqaruv organini qaysi?
8.	Bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi organi qaysi?
9.	Mikromoliya bankini tashkil qilish uchun ustav kapitalining eng kam miqdori qancha bo‘lishi kerak?
10.	Quyidagi javoblardan qaysi birida Markaziy bank tomonidan litsenziyalanmaydigan faoliyatlar keltirilgan?
11.	Markaziy bank tomonidan bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnoma qancha muddat ichida o‘z yuridik kuchini saqlab turadi?
12.	Banklarni litsenziyalash tartib-taomili nechta bosqichdan iborat?
13.	Kim bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalarni berish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi?
14.	Norezident bo‘lgan jismoniy shaxslarning va xalqaro moliya institutlari, chet el banklari va boshqa kredit tashkilotlari bo‘lmagan yuridik shaxslarning jami ulushi bank ustav kapitalining necha foizidan oshmasligi kerak?
15.	Markaziy bank tomonidan beriladigan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilish muddati qancha?
16.	Nobank kredit tashkilotlari sirasiga qaysi tashkilotlar kiradi?
17.	Kredit byuro tomonidan qaysi xizmat turlari amalga oshiriladi?

18.	Qaysi tashkilotning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'yilgan minimal talab to'g'ri ko'rsatilgan?
19.	Mikromoliya tashkiloti va lombardning asosiy farqlari?
20.	Litsenziya, ruxsatnoma va xabarnoma asosida faoliyatni boshlash qaysi variantda to'g'ri ko'rsatilgan?
21.	Agar muhim ahamiyatga ega xodimlarni obyektiv sabablarga ko'ra oldindan kelishib olishning imkoni bo'lmasa, bank uning lavozimga tayinlangan kundan boshlab qancha muddat ichida Markaziy bankka keyingi kelishib olish tartibidan o'tish uchun ariza yuborishi zarur?
22.	Qayta baholash natijasida rahbar nomuvofiq deb topildi. Bank birinchi navbatda nima qilishi shart?
23.	Qaysi holatda rahbarni qayta kelishib olish talab etilmaydi?
24.	Bank boshqaruvi raisi uchun minimal talab qanday?
25.	Rahbar Nizom talablariga endilikda muvofiq emasligi aniqlansa, bank necha ish kuni ichida xabar beradi?
26.	Kasbiy manfaatlar to'qnashuvi qaysi holatda mavjud?
27.	Jamoaviy yaroqlilikning asosiy maqsadi nima?
28.	Qaysi rahbar xodimlarning ishchanlik obro'si, tajriba, bilim va ko'nikmalari, mulohazalarning mustaqilligi va individual darajadagi vaqtining yetarliligini baholash bilan bir paytda uning jamoaviy yaroqliligi ham baholanadi?
29.	Kuzatuv kengashi a'zolari bo'yicha aloqadorlik talabi qachon buzilgan hisoblanadi?
30.	Bank rahbari vaqtincha yo'q bo'lganida uning vazifalarini kim bajarishi mumkin?
31.	Qaysi holatda bank 30 kun ichida yangi nomzodni kelishib olish uchun taqdim etishi shart?
32.	Mikromoliya tashkilotlarini hisob ro'yxatidan o'tkazish tartibi Markaziy bankning qaysi normativ-huquqiy hujjatiga muvofiq belgilangan?
33.	Yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) buxgalteriya balansining qaysi qismida aks ettiriladi?
34.	Nobank kredit tashkilotlarining muassislariga (aksiyadorlariga) quyidagi talablardan qaysi biriga muvofiq bo'lishi lozim?
35.	Quyida keltirilgan faoliyat qaysi nobank kredit tashkilotining faoliyatiga kiradi? "shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkning (ashyoning) zakalat tarzidagi garovi asosida jismoniy shaxslarga qisqa muddatli mikroqarzlar berishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs"
36.	Mikromoliya tashkilotining faoliyatiga doir cheklovlarga quyidagilardan qaysi biri taalluqli?
37.	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kimga hisobdor?
38.	O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki ustav kapitalining miqdori qancha?

39.	O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankining oliy organi?
40.	To'lov tashkilotlari ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori?
41.	Quyidagi qaysi faoliyat to'lov tizimi operatorlarining faoliyatiga kiradi?
42.	Mikromoliya tashkiloti islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatish uchun qaysi talablarga rioya qilishi kerak?
43.	Iqtisodiy sohadagi jinoyatlar va boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar uchun tugallanmagan sudlanganlik holati mavjud bo'lgan shaxs nobank kredit tashkilotining muassisi (aksiyadori) bo'la oladimi?
44.	Kreditga olingan mablag'lardan nobank kredit tashkilotining ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirish mumkinmi?
45.	Nobank kredit tashkilotining rahbar xodimi qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo'lmaganda Markaziy bank nobank kredit tashkilotiga ushbu rahbar xodimni almashtirish to'g'risida ko'rsatma berishi mumkinmi?
46.	Yuridik shaxs bo'lgan, bank aksiyalarining potensial oluvchisiga yoki bu aksiyalarga bevosita yoxud bilvosita egalik qiluvchiga bevosita yoki bilvosita egalik qiladigan yoxud uni nazorat qiladigan jismoniy shaxs bu ...
47.	Bankning boshqaruv a'zolari bo'lmagan, lavozimi bank faoliyatiga muhim ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradigan xodimlar kimlar?
48.	Shaxs tomonidan yoki birgalikda harakat qiluvchi shaxslar tomonidan yuridik shaxs ustav fondining bir yoxud bir necha bitim natijasida olingan kamida besh foiziga bevosita yoki bilvosita egalik qilish nima deb ataladi?
49.	Banklar guruhi bu ...
50.	Bankning yuridik shaxs bo'lmagan, bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi va bank tomonidan o'ziga berilgan vakolatlar doirasida harakat qiluvchi alohida bo'linmasi ...
Moliyaviy barqarorlik departamenti	
1.	Makroprudensial siyosat va pul-kredit siyosatlari orasidagi o'zaro farq?
2.	Tizimli xatar nima va ushbu xatarlarning qanday turlari mavjud?
3.	Makroprudensial siyosatning asosiy maqsadi nima?
4.	Makroprudensial siyosat vositalari qanday turlarga bo'linadi va ushbu vositalar nima maqsadlarda qo'llaniladi?
5.	Qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalar qanday maqsadda qo'llaniladi?
6.	O'zbekistonda qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalar bo'yicha qanday me'yor talablari o'rnatilgan?
7.	Moliyaviy siklning turli fazalarida mamlakat iqtisodiyoti qanday shakllanadi?
8.	Likvidlilik vositalari mohiyati va ushbu vositalar bo'yicha o'rnatilgan talablar?
9.	Leveraj koeffitsiyenti nima?
10.	Kapital konservatsiya buferi (CCoB) mohiyati va ushbu bufer bo'yicha o'rnatilgan talab?

11.	Kontrsiklik kapital bufer (CCyB) mohiyati va moliyaviy sikl fazalarida ushbu buferni qo‘llash tartibi?
12.	Tizimli xatar buferi boshqa kapital buferlaridan qanday farq qiladi?
13.	Makroprudensial siyosat vositalarining qanday transmission kanallari mavjud?
14.	Tizimli ahamiyatga molik bank deganda nimani tushunasiz?
15.	Qanday mezonlarga ko‘ra tizimli ahamiyatga molik banklar aniqlanadi?
16.	Aktivlar narxidagi o‘zgarishlar moliyaviy barqarorlikka qanday kanallar orqali ta’sir ko‘rsatadi?
17.	Qarzga xizmat ko‘rsatishning daromadga nisbati hamda qarzning daromadga nisbati o‘rtasida qanday farq mavjud?
18.	Konsentratsiya xavfi nima?
19.	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan banklar uchun kapital monandligiga qanday talablar qo‘yilgan?
20.	Tartibga solish arbitraji nima?
21.	Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflar va ularning moliyaviy barqarorlikka ta’siri?
22.	Korrelyatsiya va kovariatsiya orasidagi farq?
23.	Standart chetlanish ko‘rsatkichining mohiyati?
24.	Normal taqsimot nima va uning asosiy xossalari?
25.	Moda, mediana va o‘rtacha ko‘rsatkichlar bir-biridan qanday farq qiladi?
26.	Multikolleniarlik tushunchasi nimani anglatadi?
27.	Statsionarlik va nonstansionarlik tushunchalarining mohiyati nima?
28.	To‘plam (population) va tanlanma (simple) orasidagi farq?
29.	Qanday ekonometrik modellarni bilasiz?

Moliyaviy monitoring departamenti

1.	Bir martalik operatsiyalar deganda nima tushuniladi?
2.	Tijorat bankida Ichki nazorat tizimi kim tomonidan tashkil etiladi va nazorat qilinadi?
3.	Tijorat bankida Ichki nazorat xizmati bevosita kimga hisobdor?
4.	Ichki nazorat xizmatining xodimlari to‘lov (hisob-kitob), kredit va buxgalteriya hujjatlarini imzolash yoki vizalashni amalga oshira olmaydi
5.	Maxsus vakolatli davlat organi qaysi?
6.	“Benefitsiar mulkdor”ni aniqlash – bu tekshiruvning qaysi bosqichiga kiradi?
7.	Mijozning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalash deganda nima tushuniladi?
8.	Offshor hududlar qanday hudud?

9.	Masofaviy xizmatlar deganda nima tushuniladi?
10.	Mijoz anketasi tijorat bankida mijoz bilan munosabatlar to‘xtatilgan kundan boshlab nechi yildan kam bo‘lmagan muddat davomida saqlanadi?
11.	FATF tomonidan ishlab chiqilgan asosiy hujjatlar qanday nomlanadi?
12.	Tijorat banklarida Ichki nazorat xizmati rahbari yoki xodimi lavozimiga qanday shaxslar tayinlanishi mumkin emas?
13.	Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tuzilgan terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslar ishtirokidagi operatsiyalar aniqlanganda nima qilinadi?
14.	Tijorat banklari faoliyatida bir martalik operatsiyalar deganda nima tushuniladi?
15.	Tijorat bankida mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarda aniqlangan qonunbuzarlik holatlarida kimga xabar yuborilishi kerak? (73 band)
16.	Operatsiya qatnashchisi bo‘lgan yuridik shaxs Ro‘yxatga kiritilgan jismoniy yoki yuridik shaxsning mulkida yoki nazorat ostida bo‘lsa qanday chora ko‘riladi?
17.	Qachon tijorat banklari mijozlardan olingan axborotlar (hujjatlar)ni tekshirishi (verifikatsiya qilishi) lozim?
18.	Tijorat banklarida terrorchilik faoliyati yoki ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishda qatnashayotgan yoki qatnashishda gumon qilinayotgan shaxslar ishtirokida amalga oshirilayotgan“Operatsiyalarni to‘xtatib turish” deganda nima tushuniladi?
19.	Tijorat banklarida qaysi holatda mijozni qayta identifikatsiya qilish talab etilmaydi?
20.	Yuridik shaxsning boshqaruv organi o‘zining joylashgan yuridik manzili bo‘yicha mavjud emasligi aniqlanganda tijorat banki mijozga operatsiyani amalga oshirishni rad etishga haqli bo‘ladimi?
21.	Mijozni lozim darajada tekshirish choralari Bir martalik operatsiya summasi BHMning 100 baravaridan oshmaganda (shubhali bo‘lmagan taqdirda) amalga oshiriladimi?
22.	Mijozning tavakkalchilik darajasini qayta baholash muddati yuqori darajadagi mijozlar uchun qanday?
23.	"Benefitsiar mulkdor" deb kimga aytiladi?
24.	Nobank kredit tashkilotlarida "shubhali operatsiya" haqidagi xabarni maxsus vakolatli organga yuborish muddati qancha?
25.	Qaysi mezon mijozni yuqori darajadagi tavakkalchilik guruhiga kiritish uchun asos bo‘ladi?
26.	Tijorat banklarida Ichki nazorat tizimi monitoringi natijalari bo‘yicha hisobot rahbariyatga qancha muddatda taqdim etiladi?
27.	Jismoniy shaxsning identifikatsiya ma’lumotlariga nimalar kirmaydi?
28.	Aktivlarni "ishga solmay to‘xtatib qo‘yish" (muzlatish) nima degani?

29.	“Ro‘yxat”dagi shaxs operatsiya o‘tkazishni so‘rab murojaat qilganda bank qanday yo‘l tutadi?
30.	"Ro‘yxat"ga kiritilgan shaxslar haqidagi ma’lumot tashkilotlarga qanday kelib tushadi?
31.	To‘xtatib qo‘yilgan mol-mulkdan foydalanishga qaysi holda ruxsat beriladi?
32.	Operatsiyani to‘xtatib turish haqidagi xabar Departamentga qaysi vaqt ichida yuboriladi?
33.	Markaziy bank tomonidan banklarga nisbatan qo‘llaniladigan "qo‘pol qoidabuzarlik" uchun jarima miqdori qancha?
34.	Ichki nazorat qoidalarining mavjud emasligi yoki tasdiqlanmaganligi bank faoliyati uchun "qo‘pol qoidabuzarlik" deb hisoblanadimi?
35.	Nobank kredit tashkilotlariga nisbatan jarima sanksiyalari qaysi organning qarori bilan qo‘llaniladi?
36.	Markaziy bank tomonidan jarima belgilanganda, jarimani to‘lash muddati qaror qabul qilingan kundan boshlab qancha?
37.	Tijorat banklarida ichki nazorat xizmati mas’ul xodimining o‘rinbosari kim bo‘lishi mumkin emas?
38.	O‘zaro bog‘liq operatsiyalar summasi qancha bo‘lganda ular bitta operatsiya sifatida ko‘riladi?
39.	Tijorat Banki mijozning operatsiyasini rad etganda, bu haqda Departamentga necha kun ichida xabar beradi?
40.	Shubhali operatsiya mezonlariga ko‘ra, hisobvaraqdan mablag‘larni naqdlashtirish bo‘yicha "g‘ayritabiiy" operatsiya deganda nima tushuniladi?
41.	Tashkilotda Ichki nazorat xizmati mas’ul xodimning malakasini oshirish davriyligi qanday?
42.	Nobank kredit tashkilotlarida ichki audit qachon tekshirish o‘tkazadi?
43.	Tijorat banklarida mijozning ishonchli vakili mavjud bo‘lganda kim identifikatsiya qilinishi kerak?
44.	Qaysi davlatlar "fatf"ning "qora ro‘yxati"ga kiradi?
45.	Tranzaksion monitoring tizimi nima uchun kerak?
46.	Tashkilotning Ichki nazorat tizimi samaradorligini kim baholaydi?
47.	To‘xtatib turilgan operatsiyani tiklash qachon amalga oshiriladi?
48.	Ommaviy qirg‘in qurolini tarqatish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslarning aktivlari qanday muddatda muzlatilishi kerak?
49.	KYC (Know Your Customer) tamoyilining 4 ta asosiy elementi qaysilar?
50.	Noqonuniy daromadlarni legallashtirishning "integratsiya" bosqichi nima?
51.	AML bo‘yicha xalqaro standartlarni ishlab chiquvchi asosiy tashkilot qaysi?
52.	Nobank kredit tashkilotlarda "Tavakkalchiliklarni boshqarish dasturi"ni kim tasdiqlaydi?

Moliyaviy texnologiyalarni ruvojlantirish departamenti

1.	Blokcheyn texnologiyasining asosiy ajralib turuvchi xususiyati nima?
2.	Raqamli hamyon tushunchasiga eng mos ta'rif qaysi?
3.	Ochiq banking joriy etilishining asosiy maqsadi nima?
4.	RegTech texnologiyalarining asosiy maqsadi nima?
5.	Inkubatsiya va akseleratsiyaning bir biridan farqi?
6.	Quyidagilardan qaysi biri innovatsion xabning odatiy funksiyasi hisoblanmaydi?
7.	Qaysi holat tartibga solish qumdonining (regulatory sandbox) asosiy maqsadini eng aniq ifodalaydi?
8.	PQ-359 qaroriga muvofiq, stablecoinlar keng joriy etilishdan oldin qayerda sinovdan o'tkaziladi?
9.	Yagona startup ekotizimi platformasida ro'yxatdan o'tgan ishtirokchilar qanday imtiyozlarga ega bo'ladilar?
10.	Ochiq banking tizimining markaziy operatsion elementi nima hisoblanadi?
11.	Startaplar uchun R&D (tadqiqot va ishlanmalar) vaucheri nimani anglatadi?
12.	Fintex sanoatida API (Application Programming Interface)larning asosiy roli nima?
13.	Neobank haqida tushuncha?
14.	Smart kontraktarning asosiy xususiyati nimada?
15.	KYC (Know Your Customer) jarayonining asosiy maqsadi nima?
16.	AML (Anti-Money Laundering) tizimlarining asosiy vazifasi nima?
17.	BNPL konsepsiyasining asosiy mazmuni nima?
18.	Moliyaviy xizmatlarda biometrik autentifikatsiyaning asosiy ustunligi nima?
19.	Tokenizatsiya texnologiyasining asosiy maqsadi nima?
20.	Kraudfanding platformalarining asosiy xususiyati nima?
21.	Markazlashmagan moliya (DeFi) konsepsiyasining asosiy tamoyili nima?
22.	Fintex startapining to'lov ilovasi tez sur'atlarda o'smoqda, ammo firibgarlik (fraud) holatlari keskin ortmoqda. Eng optimal yechim qaysi?
23.	Bank ochiq banking APIlarini ishga tushirdi, biroq foydalanuvchilar o'z ma'lumotlarini ulashishga ishonchsizlik bildirmoqda. Eng to'g'ri strategiya qaysi?
24.	Fintex kompaniyasining sun'iy intellektga asoslangan kredit skoring modeli tizimli xatolik (bias) ko'rsatmoqda. Eng to'g'ri

	yondashuv qaysi?
25.	Tez o‘sayotgan raqamli bank KYC jarayonining sekinligi sababli mijozlarni yo‘qotmoqda. Eng yaxshi yechim qaysi?
26.	Kripto startup token chiqarishni rejalashtirmoqda, biroq regulyator to‘siqlarga duch kelmoqda. Eng to‘g‘ri strategiya qaysi?
27.	Fintex platforma BNPL xizmatini ishga tushirdi, ammo foydalanuvchilarning qarzдорlik darajasi xavfli darajada oshmoqda. Eng to‘g‘ri yechim qaysi?
28.	DeFi platformada foydalanuvchilar mablag‘larini tezda yechib olishlari natijasida likvidlik inqirozi yuzaga kelmoqda. Eng to‘g‘ri yondashuv qaysi?
29.	Fintex kompaniya qat’iy regulyator talablarga ega yangi bozorga kirishni rejalashtirmoqda. Eng to‘g‘ri strategiya qaysi?
30.	Fintex rivojlanishida Markaziy bankning asosiy roli nimadan iborat?
31.	Markaziy bank tomonidan raqamli valyuta (CBDC) joriy etilishining asosiy maqsadi nima?
32.	Markaziy bank tomonidan tartibga solish qumdoni (regulatory sandbox) joriy etilishining asosiy maqsadi nima?
33.	Markaziy bank tomonidan elektron pul va to‘lov tizimlarini tartibga solishning asosiy sababi nima?
34.	Fintex rivojlanishi Markaziy bank uchun qanday yangi vazifalarni keltirib chiqaradi?
35.	Fintech moliyaviy inklyuziyaga qanday ta’sir qiladi?
36.	Markaziy bankning Moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishdagi ro‘li qanday?
37.	Raqamli transformatsiya bank sektorida nimani o‘zgartiradi?
38.	Agar mahsulot narxiga 30% ustama qo‘yilgan bo‘lsa va sotish narxi 130 000 so‘m bo‘lsa, tannarx qancha?
39.	Fintech ekotizimi qanday elementlardan iborat?
40.	3391 nizomga asosan birgalikda arizaq beruvchilar kimlar?
41.	Moliyaviy texnologiyalar mahsulotiga nimalar misol bo‘la oladi?
42.	Moliyaviy texnologiyalar sohasida “blokcheyn” texnologiyasi nimaga xizmat qiladi?
43.	Moliyaviy texnologiyalar rivojida “regulyator sandbox” nima uchun kerak?
44.	Ochiq bank tizimi (Open Banking) standartlarini joriy etishda foydalaniladigan API (Application Programming Interface) texnologiyasining asosiy vazifasi nimadan iborat?
45.	Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) va kriptovalyutalarning (masalan, Bitcoin) fundamental farqi nimada?
46.	Neobanklar (Raqamli banklar) va an’anaviy banklarning biznes modeli o‘rtasidagi eng katta farqni ko‘rsating:
47.	Moliyaviy texnologiyalar sohasidagi "Biometrik identifikatsiya" tizimlariga nimalar kiradi?

48.	To'lov tizimlaridagi "Tokenizatsiya" jarayoni nimani anglatadi?
49.	"Buy Now, Pay Later" (BNPL - Hozir sotib ol, keyin to'la) xizmati an'anaviy kredit kartadan nimasi bilan farq qiladi?
Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish xizmati	
1.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida iste'molchilar huquqlarining ustuvorligi qanday mazmunda belgilangan?
2.	Moliyaviy xizmatlar sohasida "iste'molchi" tushunchasi nimani anglatadi deb o'ylaysiz?
3.	"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga muvofiq, banklar qanday asosiy moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi?
4.	"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, bank bir xizmatni ko'rsatishni boshqa xizmat yoki mahsulotdan foydalanish sharti bilan bog'lashi mumkinmi?
5.	"Bank siri to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilish deganda qanday harakatlar tushuniladi?
6.	"Bank siri to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar qaysi shaxslarga va tashkilotlarga taqdim etilishi mumkin?
7.	Sizningcha, nima sababdan moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish vazifasi Markaziy bank vakolatlari doirasiga kiritilgan?
8.	"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunida kredit tashkilotlari xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha Markaziy bank qanday choralar ko'rishi nazarda tutilgan?
9.	"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunda bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qanday asosiy talablar belgilangan?
10.	"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunda bank xizmatlari shartlari, tariflar, vositachilik haqi va foiz stavkalari to'g'risidagi axborotni oshkor qilish bo'yicha qanday talablar mavjud?
11.	"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, banklar mijozlarning murojaatlarini qanday muddatlarda ko'rib chiqishi lozim?
12.	3030-sonli "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomning asosiy maqsadi nimadan iborat deb o'ylaysiz?
13.	Iste'molchi bilan tuziladigan moliyaviy xizmat shartnomasi nima uchun aniq, sodda va tushunarli tilda rasmiylashtirilishi lozim deb o'ylaysiz?
14.	Bank xizmatlari iste'molchisiga kredit yoki omonat bo'yicha asosiy shartlar to'g'risidagi axborotni oldindan taqdim etish nima uchun muhim?

15.	Kredit bilan mikroqarz o'rtasida qanday farq bor?
16.	Tasavvur qiling, mijoz avtokredit olmoqchi. Bank xodimi esa: "Agar bizning bank kartamizga buyurtma bermasangiz va mobil ilovamizni o'rnatmasangiz, sizga kredit bera olmaymiz", dedi. Siz ushbu vaziyatni qanday baholaysiz? Agar bank "bu mijozga qulaylik yaratish uchun" desa, bunga munosabatingiz qanday?
17.	Iste'molchi bilan tuziladigan moliyaviy xizmat shartnomasida to'lovlar, komissiyalar, jarimalar va boshqa majburiyatlar aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, bu holat iste'molchi huquqlariga qanday ta'sir qilishi mumkin?
18.	"To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, to'lov tashkiloti to'lov xizmatlarini ko'rsatuvchi subyekt, to'lov tizimi operatori esa to'lov tizimining ishlashini ta'minlovchi subyekt hisoblanadi. To'lov tashkilotlari va to'lov tizimi operatorlari faoliyatida iste'molchilar huquqlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan asosiy xavflar nimalardan iborat?
19.	Kredit bo'yicha foiz stavkasi past ko'rsatilgan bo'lsa, bu kredit iste'molchi uchun arzon ekanini har doim anglatadimi? Javobingizni asoslang.
20.	Tekshiruv jarayonida iste'molchilar bilan tuzilgan shartnomalar, bank tariflari, va murojaatlar bo'yicha hujjatlarni o'rganish nima uchun muhim?
21.	Moliyaviy tashkilot tomonidan iste'molchiga noto'g'ri, to'liq bo'lmagan yoki chalg'ituvchi axborot berilganligini qanday baholash mumkin deb o'ylaysiz?
22.	Kreditning to'liq qiymati deganda nimani tushunasiz, u nima uchun kredit shartnomalarida ko'rsatiladi?
23.	Moliyaviy tashkilotlar kesimida murojaatlar sonining oshishi har doim ham qoidabuzarlik mavjudligini anglatadimi? Javobingizni asoslang.
24.	Tasavvur qiling, ayrim rivojlangan davlatlarda banklar mijozga kredit berishdan oldin uning bilimini maxsus testdan o'tkazadi
25.	"Sirli mijoz" usuli deganda nimani tushunasiz va u qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
26.	Moliyaviy tashkilotlar faoliyatida iste'molchilar huquqlariga oid bir xil muammolar takroran uchrasa, bunday holat bo'yicha umumiy tushuntirish yoki taklif ishlab chiqish nima uchun zarur?
27.	Xalqaro davlatlar tajribasini O'zbekiston moliyaviy bozoriga joriy etishda qanday omillar hisobga olinishi kerak deb o'ylaysiz?
28.	Kredit foiz stavkasi bilan depozit foiz stavkasi o'rtasida farq bo'lishining iqtisodiy sabablari nimalardan iborat?
29.	Mijoz 10 000 000 so'm kredit olmoqda. Shartnomaga ko'ra, sug'urta to'lovi kredit summasining 5 foizini tashkil etadi va kredit berilayotganda sug'urta to'lovi uchun o'tkaziladi. Mijoz amalda qancha mablag' oladi va foizlar qaysi summaga nisbatan hisoblanadi?
30.	Bank kredit reklamasida "yillik 24 foiz" deb ko'rsatgan, lekin shartnomada qo'shimcha komissiya va sug'urta to'lovlari mavjud. Bu holatda iste'molchi kreditning haqiqiy xarajatini qanday bilishi mumkin?
31.	Mijoz 3 yillik kredit oldi. Birinchi oylarda to'lovning katta qismi foizga, kam qismi asosiy qarzga ketmoqda. Bank mijozga to'lov

	grafigi va to'lov tartibini qanday tushuntirishi kerak?
32.	Moliyaviy xizmatlar iste'molchilari uchun erkin tanlov imkoniyati yaratish deganda nimani tushunasiz?
33.	Iste'molchi kredit, omonat yoki to'lov xizmati shartlarini to'liq tushunmagan holda qaror qabul qilsa, bu qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
34.	Masofaviy bank xizmatlari, mobil ilovalar va onlayn kreditlash rivojlanishi iste'molchilar uchun qanday qulayliklar va qanday xavflarni yuzaga keltiradi?
35.	"Iste'molchi har doim haq" degan fikr moliyaviy xizmatlar sohasida to'liq qo'llanilishi mumkinmi? Javobingizni asoslang
36.	Xalqaro amaliyotda moliyaviy xizmatlar iste'molchilarini himoya qilishning asosiy prinsiplari deganda nimalar tushuniladi?
37.	Xalqaro amaliyotda moliyaviy ombudsman yoki mustaqil nizolarni hal qilish mexanizmi iste'molchilar uchun qanday qulaylik yaratadi?
38.	Rivojlangan davlatlarda moliyaviy tashkilotning faqat qonun talabini rasman bajarishi yetarlimi yoki iste'molchi uchun haqiqiy natija ham muhimmi? Javobingizni asoslang
Monetar operatsiyalar departamenti	
1.	Likvidlik prognozi nima? Markaziy banklar bank tizimidagi likvidlik ehtiyojini aniqlashda qaysi asosiy omillarni (avtonom omillar) hisobga oladi?
2.	Asosiy stavka va bozor stavkalari: Markaziy bankning asosiy stavkasi o'zgarishi banklararo pul bozoridagi stavkalarga qanday mexanizm orqali ta'sir ko'rsatadi?
3.	Majburiy zaxira talablari: Ushbu instrumentning faqat likvidlikni tartibga solish emas, balki "pul multiplikatori"ga ta'sirini tushuntirib bering
4.	Ochiq bozor operatsiyalari (OMO): Markaziy bank tomonidan obligatsiyalarni sotish operatsiyasi bank tizimidagi likvidlik miqdoriga qanday ta'sir qiladi?
5.	REPO va Teskari REPO: Ushbu ikki operatsiyaning iqtisodiy mazmuni o'rtasidagi farqni va ularning har biri qanday likvidlik sharoitida qo'llanilishini izohlang
6.	Lombard krediti: Tijorat banki qanday vaziyatda Markaziy bankning doimiy amallar xizmatidan foydalanishga majbur bo'ladi?
7.	Monetar transmissiya mexanizmi: "Kredit kanali" orqali Markaziy bank qarorlari real sektorga qanday yetib boradi?
8.	Markaziy bank obligatsiyalari: Nima uchun Markaziy bank davlat obligatsiyalari o'rniga o'zining qimmatli qog'ozlarini emissiya qilishi mumkin?
9.	Depozit auksionlari: Ushbu operatsiya bank tizimidagi qaysi holatni (ortiqcha yoki taqchillik) bartaraf etish uchun o'tkaziladi?
10.	"Overnight" stavkalar: Nima uchun banklararo bozordagi bir kunlik (overnight) stavkalar Markaziy bank foiz koridorida bo'lishi muhim?

11.	Likvidlikni sterilizatsiya qilish: Iqtisodiyotda pul massasi haddan tashqari ko‘payib ketganda, Markaziy bank qanday “sterilizatsiya” choralari ko‘radi?
12.	Garov ta’minoti (Collateral): Markaziy bank monetar operatsiyalarida garov sifatiga (haircut va rating) nima uchun alohida e’tibor qaratadi?
13.	Markaziy kontragent (CCP): Banklararo pul bozorida bitimlar markaziy kontragent orqali amalga oshirilishining asosiy afzalligi nimada?
14.	Fine-tuning operatsiyalari: Ushbu operatsiyalar muntazam monetar operatsiyalardan o‘zining muddati va maqsadi bilan qanday farqlanadi?
15.	Foiz koridori (Interest Rate Corridor) nima?
16.	Likvidlikning "ortiqchaligi" va "taqchilligi" o‘rtasidagi farq nima?
17.	Tizimli likvidlik taqchilligi: Agar bank tizimida uzoq muddatli pul yetishmovchiligi kuzatilsa, Markaziy bank qisqa muddatli operatsiyalardan tashqari yana qanday choralarni qo‘llashi mumkin?
18.	Hosila moliyaviy instrumentlar (derivativlar) nima? Moliyaviy derivativlarning asosiy turlari va ularning farqlari nimada?
19.	Derivativlarning asosiy (bazaviy) aktivlari nima?
20.	Derivativlardan foydalanishning asosiy maqsadi nima?
21.	Derivativ operatsiyasi qanday amalga oshirilishini tushuntirib bera olasizmi?
22.	Forvard va fyuchers o‘rtasida qanday farq bor?
23.	Birjadan tashqari (OTC) va birjada savdo qilinadigan bozorlar nima?
24.	Svop shartnomasi nima? Misol keltiring
25.	Opsion nima? Misol keltiring
26.	Foiz stavka svopi nima?
27.	Qisqa (short) va uzun (long) pozitsiyalar nima?
28.	Yevropa va Amerika opsionlari o‘rtasida qanday farq bor?
29.	Xedjirlash (hedging) nima?
30.	Xedjirlash, spekulyatsiya va arbitraj o‘rtasidagi farqni tushuntiring.
31.	Derivativlar savdosida qanday asosiy xatarlar mavjud?
32.	Derivativlarning adolatli qiymatini aniqlash uchun qanday modellar yoki usullar qo‘llaniladi?
33.	Call opsiони va put opsiони nima?
34.	Credit Default Swap nima? Tushuntirib bering.
35.	Black–Scholes–Merton modeli nima? Tushuntirib bering.

36.	Kapital aktivlarini baholash modeli (Capital Asset Pricing Model, CAPM) nima? Tushuntirib bering.
37.	Zamonaviy portfel nazariyasi (Modern Portfolio Theory) nima? Tushuntirib bering.
38.	Valyuta kursi rejimlari haqida ma'lumot bering va ular o'rtasidagi asosiy farq nima?
39.	Mundell-Flemingning "Imkonsiz uchlik" (Impossible Trinity/Trilemma) nazariyasini tushuntiring va uning amaliy ahamiyati nima?
40.	NER, RER, NEER va REER o'rtasidagi farqni tushuntiring.
41.	Forward shartnoma, fyuchers, opsiya va svop o'rtasidagi tarkibiy va funksional farqlar nimalardan iborat?
42.	Denominatsiya, devalvatsiya, revalvatsiya va nullifikatsiya — har birining iqtisodiy mohiyati va oqibatlarini tushuntiring.
43.	Valyuta arbitraj nima? Uch tomonlama (triangular) arbitraj qanday amalga oshiriladi?
44.	Valyuta intervensiyasi nima va markaziy bank uni qanday maqsadlarda o'tkazadi?
45.	Valyuta konvertatsiyasi nima? Erkin konvertatsiya qilinadigan va cheklangan valyutalar o'rtasidagi farq nima?
46.	Valyuta bozorida "bid-ask spread" (sotib olish va sotish kurslari farqi) nima va u likvidlik hamda risk bilan qanday bog'liq? Spread kengayishi qanday bozor sharoitlarida kuzatiladi?
47.	Valyuta kotirovkasining to'g'ri va teskari kotirovkalash shakllari nima? Misol keltiring.
48.	Dollarizatsiya nima? To'liq va qisman dollarizatsiyaning farqi va oqibatlarini tushuntiring.
49.	“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ko‘ra Markaziy bankning valyuta siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish vakolatlari nimalardan iborat?
50.	O‘zbekiston Respublikasi hududida valyutani tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi Davlat organlariga qaysilar kiradi?
Naqd pul muomalasini tashkil etish departamenti	
1.	Naqd pul muomalasi deganda nimani tushunasiz?
2.	Naqd pul muomalasining iqtisodiyotdagi o'rni qanday?
3.	Naqd pul muomalasini tartibga solish bo'yicha siyosatni kim olib boradi?
4.	Markaziy bankning naqd pul muomalasini tashkil etishdagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5.	Naqd pul emissiyasi deganda nimani tushunasiz?
6.	Naqd pullar emissiyasi qanday hollarda amalga oshiriladi?
7.	Muomaladagi naqd pullar miqdori nimani anglatadi?
8.	Qanday pul agregatlari bor va ularning tarkibi nimadan iborat?
9.	Naqd pullar va naqdsiz pullar o'rtasida qanday farq bor?
10.	Naqd pullarning aylanish tezligi nimani bildiradi?
11.	Naqd pullar aylanmasi qanday tartibga solinadi?
12.	Banklarda kassa intizomi deganda nima tushuniladi?

13.	Naqd pulni bankka topshirish muddatlari qanday belgilanadi?
14.	Respublikamizda raqamli valyutani joriy etilishi naqd pul muomalasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
15.	Tijorat banklari kassasi deganda nimani tushunasiz?
16.	Banklarda kassirlarning vazifalari nimalardan iborat?
17.	Qanday kirim va chiqim kassa hujjatlarini bilasiz?
18.	Bank kassirlari moddiy javobgar shaxs hisoblanadimi?
19.	O'zbekistonda banknot va tangalarning qanday nominallari muomalada yuribdi?
20.	O'zbekiston so'mi banknotlaridagi qanday himoya elementlarini bilasiz?
21.	Muomaladagi naqd pullarni qisqartirishning afzalliklari nimada?
22.	Naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlanishi naqd pullar muomalasiga qanday ta'sir qiladi?
23.	Naqd pul aylanishiga eng kuchli ta'sir qiluvchi omil nima?
24.	Pul buxgalteriya hisobvaraqlarida hisobda qanday aks etadi?
25.	Naqd pul aylanmasini boshqarishda raqamli texnologiyalar qanday rol o'ynaydi?
26.	Rivojlanayotgan mamlakatlarda naqd pulga bo'lgan yuqori talab sabablari nimada?
27.	Muomalada naqd pullarning ortiqchaligi nimalarga olib keladi?
28.	Bank tizimida naqd pullarning aylanishi qanday tashkil etiladi?
29.	Raqamli iqtisodiyotda naqd pulning roli qanday o'zgaradi?
30.	Kelajakda respublikamizda naqd pullar muomalasi qanday rivojlanadi deb o'ylaysiz?
31.	Naqd pul muomalasini optimallashtirish uchun Markaziy bank qanday instrumentlardan foydalanadi?
32.	Naqd pullar emissiyasi bilan inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlik mavjudmi?
33.	Naqd pullarning aylanish tezligining pasayishi iqtisodiyotga qanday ta'sir etadi?
34.	Mijozlarning naqd pul tushumlarini inkassatsiya qilish jarayonini tushuntirib bering
35.	Bank kassiri e'tiborsiz oqibatida qaysidir mijozdan qalbaki banknotni qabul qilib olgan bo'lsa, ushbu holatda kassir qanday harakatlarni amalga oshirishi lozim?
36.	Naqd pul aylanishini optimallashtirishda asosiy maqsad?
37.	Naqd pulning kamchiliklari nimada?
38.	O'zbekistonda kelajakda, naqd pullardan voz kechish siyosatini amalga oshirilishi qay darajada real va bu qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
39.	Naqd pul muomalasini cheklash orqali "yashirin iqtisodiyot"ni kamaytirish mumkinmi?
40.	Naqd pul bilan ishlashda asosiy risklar qaysilar?

41.	Elektron to'lov tizimlari xavfsizligi naqd pulga nisbatan qay darajada ishonchli?
42.	Naqd pullar muomalasini tashkil etish xarajatlarini kamaytirish uchun qanday innovatsion yechimlar taklif qilasiz?
43.	Banknotlarning tez eskirishiga qanday omillar ta'sir qiladi va buni qanday kamaytirish mumkin?
44.	Naqd pul muomalasini cheklashga qaratilgan qonunchilik choralari biznes subyektlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?
45.	Banklarning kassa operatsiyalarini auditorlar tomonidan nazorat qilishining ijobiy tomonlarini gapirib bering
46.	Bank kassalar orqali amalga oshirilgan naqd puldagi kirim va chiqim kassa amallari qanday monitoring qilinadi?
47.	Global moliyaviy inqirozlar davrida naqd pulga bo'lgan talab qanday o'zgaradi?
48.	Bank tizimida naqd pullar muomalasini tashkil etishni takomillashtirish borasida nimalarni taklif etish mumkin?
49.	Rivojlangan davlatlarda naqd puldan voz kechish tendensiyasi qanday kechmoqda va bu jarayonda qaysi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega?
50.	Xalqaro tajribada naqd pul muomalasini tartibga solishning qanday samarali usullari mavjud?
Pul-kredit siyosati departamenti	
1.	Pul-kredit siyosati transmissiya kanallarini qanday tushunasiz va ularning iqtisodiyotga ta'siri qanday bosqichlarda namoyon bo'ladi?
2.	Markaziy bank asosiy stavkasining bank foiz stavkalari, kreditlash hajmi va ichki talabga ta'siri qanday shakllanadi?
3.	Almashuv kursi kanali inflyatsiya, tashqi savdo va iqtisodiy faollikka qanday ta'sir ko'rsatadi?
4.	Inflyatsion kutilmalar pul-kredit siyosati samaradorligida qanday o'rin tutadi?
5.	Markaziy bank ishonchliligi va kommunikatsiya siyosati inflyatsiya dinamikasiga qanday ta'sir qiladi?
6.	Inflyatsiyani tahlil qilishda talab, taklif, import narxlar, tartibga solinadigan narxlar va bazaviy inflyatsiya omillarini qanday ajratish mumkin?
7.	Iqtisodiyotdagi talab va taklif shoklariga pul-kredit siyosati qanday farqli javob berishi kerak?
8.	Ishlab chiqarish tafovuti va potensial YIM tushunchalari pul-kredit siyosati qarorlarida qanday qo'llaniladi?
9.	Neytral real foiz stavkasi va pul-kredit sharoiti tushunchalarini qanday izohlaysiz?
10.	Pul-kredit siyosati qoidalari, jumladan Teylor qoidasi, amaliyotda qanday afzalliklarga ega?
11.	Moliyaviy sharoitlar, kredit kanali va bank balansi kanali makroiqtisodiy barqarorlikka qanday ta'sir qiladi?
12.	Qisman dollarlashuv sharoitida pul-kredit siyosati transmissiyasi qanday o'zgaradi?
13.	Fiskal siyosat va pul-kredit siyosati o'rtasidagi o'zaro ta'sir inflyatsiya va foiz stavkalari dinamikasida qanday namoyon bo'ladi?
14.	Tashqi shoklar, jumladan jahon xomashyo narxlar, tashqi foiz stavkalari va savdo hamkorlari talabi o'zgarishi ichki makroiqtisodiy barqarorlikka qanday ta'sir qiladi?
15.	Qisqa va o'rta muddatli inflyatsiya prognozlarini shakllantirishda qanday makroiqtisodiy mexanizmlarga e'tibor qaratish kerak?

16.	Pul-kredit siyosati qarorlarida ssenariy tahlili va xatarlarni baholash qanday rol o'ynaydi?
17.	Inflyatsion targetlash rejimida Markaziy bank inflyatsiya maqsadi, iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni qanday ko'radi?
18.	Valyuta intervensiyalari va pul-kredit siyosati maqsadlari o'rtasida qanday muvofiqlik yoki ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin?
19.	Makroiqtisodiy modellar pul-kredit siyosati tahlili va qaror qabul qilish jarayonida qanday qo'llaniladi?
20.	Pul-kredit siyosati samaradorligini amalda qanday baholash mumkin va ta'sir laglarini qanday talqin qilish lozim?
21.	Ekonometrik modellar haqida nimalarni bilasiz?
22.	Ekonometrik modelda korrelyatsiya va sababiy bog'liqlik o'rtasidagi farqni qanday tushunasiz?
23.	Klassik regressiya modeli taxminlari makroiqtisodiy ma'lumotlarda ta'minlanmaganda natijalar qanday o'zgarishi mumkin?
24.	Endogenlik muammosi qanday yuzaga keladi va uni aniqlash hamda kamaytirish uchun qanday yondashuvlar qo'llaniladi?
25.	Instrumental o'zgaruvchilar usulida instrumentning relevantligi va ekzogenligi qanday baholanadi?
26.	Vaqt qatorlarida birlik ildiz, statsionarlik va transformatsiya tanlovi empirik natijalarga qanday ta'sir qiladi?
27.	VAR va SVAR modellari pul-kredit siyosati shoklarini tahlil qilishda qanday imkoniyat va cheklovlarga ega?
28.	Local projections usuli impuls javob funksiyalarini baholashda qanday qo'llaniladi?
29.	Kointegratsiya va xatolarni tuzatish modeli uzoq muddatli iqtisodiy munosabatlarni tahlil qilishda qanday ahamiyatga ega?
30.	Panel ma'lumotlarida fixed effects va random effects yondashuvlari qanday holatlarda qo'llaniladi?
31.	Geteroskedastiklik, avtokorrelyatsiya va klasterlangan xatolar sharoitida ishonchli xulosa chiqarish uchun qanday usullar zarur?
32.	Tarkibiy uzilishlar, rejim almashinuvi va siyosat o'zgarishlari ekonometrik modellarda qanday hisobga olinadi?
33.	Model tanlash, spetsifikatsiya xatosi va overfitting muammolari prognozlash va siyosiy tahlilda qanday xavf tug'diradi?
34.	Inflyatsiya, YIM va foiz stavkalarini prognozlashda ARIMA, BVAR, faktor modellari va boshqa yondashuvlar qanday farq qiladi?
35.	Pul-kredit siyosati ta'sirini baholashda event study, difference-in-differences yoki synthetic control kabi usullar qanday qo'llanilishi mumkin?
36.	Pul-kredit siyosati transmissiyasida nochiziqlilik va holatga bog'liq ta'sirlarni qanday empirik baholash mumkin?
37.	Almashuv kursi pass-through va import narxlari ta'sirini ekonometrik modelda qanday ajratib ko'rsatish mumkin?
38.	Inflyatsion kutilmalar, so'rov ma'lumotlari va o'lchash xatolarini modellashtirishda qanday ekonometrik muammolar yuzaga keladi?
39.	Kuzatilmaydigan o'zgaruvchilar, jumladan ishlab chiqarish tafovuti yoki neytral stavka, state-space modellari orqali qanday baholanadi?
40.	Impuls javob funksiyalarida ta'sirning boshlang'ich, eng yuqori va davomiylik jihatlarini qanday talqin qilish kerak?
41.	Ekonometrik natijalarni siyosiy qaror qabul qiluvchilarga yetkazishda robustlik, noaniqlik va iqtisodiy mazmunni qanday

	muvozanatlash lozim?
Qimmatbaho metallarni saqlash departamenti	
1.	Metall hisobvarag'i qanday hisobvaraq?
2.	Qimmatbaho metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo'lmagan) hisobvarag'i deganda nimani tushunasiz?
3.	Qimmatbaho metallarni mas'ul saqlash hisobvarag'i qanday hisobvaraq?
4.	Troy unsiyasi deganda nimani tushunasiz?
5.	Bir troy unsiyasi aniq og'irligi qancha?
6.	Troy unsiyasining odatdagi unsiyadan farqi?
7.	Asillik darajasi deganda nimani tushunasiz?
8.	Yombi nima?
9.	Standart quyma nima?
10.	O'lchovli quymalar ?
11.	Qimmatbaho metallar deganda nimani tushunasiz?
12.	O'zbekiston Respublikasining "Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq Markaziy bankning qimmatbaho metallarning muomalada bo'lishi sohasidagi vakolatlariga nimalar kiradi:
13.	Qimmatbaho metallarni vaznini o'lchash necha soniyada aniqlanishi kerak?
14.	Keng o'lchash diapazoni deganda nimani tushinasiz?
15.	O'lchovni yuqori darajada oshirish natijasida oltin qotishmasi uchun xatolik doirasi qancha?
16.	Oltinning taxminiy zichligi qancha?
17.	Qimmatbaho metallarni affinaj qilish deganda nimani tushunasiz ?
18.	O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'rsidagi" Qonuniga muvofiq Markaziy bankning qimmatbaho metallarga oid vakolatlariga nimalar kiradi?
19.	Qazib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar kimning mulki hisoblanadi?
20.	Platina guruhiga kiruvchi metallar qaysilar?
21.	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan sotuvi yo'lga qo'yilgan qimmatbaho metallardan tayyorlangan pul belgilari va quymalarning narxlari qanday belgilanadi?
22.	Markaziy bankka tegishli bo'lgan, xalqaro andozalarga mos keluvchi oltin qaysi hisobvaraqlarda yuritiladi?
23.	Markaziy bankka tegishli bo'lgan, xalqaro andozalarga mos kelmaydigan oltin qaysi hisobvaraqlarda yuritiladi?
24.	Markaziy bankka tegishli bo'lgan, boshqa qimmatbaho metallar qaysi hisobvaraqlarda yuritiladi?
25.	Kimlar standart va o'lchovli kuymalarni, qimmatbaho metallardan tayyorlangan pul belgilarini eksport qilishni amalga oshirish

	huquqiga ega?
26.	Ligatura vazni, bu –
27.	Kimyoviy sof vazn, bu -
28.	Tarozi qanday asbob-uskuna va u qaysi soxalarda qanday maqsadlar uchun ishlatiladi?
29.	Tarozilarning qanday turlarini bilasiz?
30.	Tarozilarni "qiyoslashdan o'tkazish" deganda nima tushuniladi?
31.	Tarozida o'lchov amaliyotini bajarishda nimalarga e'tibor berish kerak?
32.	Tarozida ishlovchi xodim qanday ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak?
Valyutani tartibga solish va nazorat qilish departamenti	
1.	Valyuta pariteti nima va u real valyuta kursidan qanday farq qiladi?
2.	Valyuta derivativlari qanday instrumentlar va ular qanday risklarni boshqarishda ishlatiladi?
3.	Yuridik shaxslar (banklardan boshqa) O'zbekiston Respublikasidan tashqariga naqd chet el valyutasini olib chiqishi mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, qanday miqdorda olib chiqishlari mumkin?
4.	O'zbekiston Respublikasida chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalarida valyuta kursi qanday belgilanadi?
5.	Rezident jismoniy shaxslar xorijda bank hisobvaraqlarini ochishi mumkinmi?
6.	O'zbekiston hududida ish beruvchi o'z xodimlariga ish haqini xorijiy valyutada to'lay oladimi? Ish haqini xorijiy valyutada to'lash qaysi holatlarda mantiqan to'g'ri bo'ladi?
7.	Valyuta kursi nimani ifodalaydi va u iqtisodiyot uchun nimani anglatadi?
8.	Ta'lim uchun chet elga to'lov qilish tartibi qanday?
9.	Norezidentlar O'zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisobvaraqlaridan mablag'larni Respublika hududidagi boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlariga o'tkazishlari mumkinmi?
10.	Valyutani tartibga solish deganda nimani tushunasiz?
11.	1 USD = 12 000 so'm bo'lsa, bu so'm uchun qanday kotirovka turiga kiradi?
12.	Milliy valyuta barqarorligi iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
13.	Tashqi savdo aylanmasi, tashqi savdo saldos va importni eksport bilan qoplash koeffitsiyenti haqida ma'lumot bering.
14.	Valyuta kursi revalvatsiyasi (milliy valyutaning qadrlanishi) eksport va importga qanday ta'sir qiladi?
15.	Real samarali almashuv kursining (REER) qadrsizlanishi qanday natijalarga olib keladi?
16.	Ayirboshlash shoxobchasi bir valyuta uchun ikki xil kurs (sotib olish va sotish) belgilaydi. Sizningcha, bank nima sababdan shu ikki kurs o'rtasida farq qo'yadi va bundan qanday foyda oladi?
17.	Agar 1 USD = 2,36 JPY bo'lsa, 1 yapon iyenasi necha AQSh dollariga teng?

18.	Valyuta kursi o'zgarishi mahsulot narxiga qanday ta'sir qiladi? Agar nemis markasining narxi 1 marka uchun 0,5 dollardan 0,4 dollarga tushsa, Germaniyada 150 markaga sotiladigan magnitofonning dollardagi narxi:
19.	Erkin valyuta kursi sharoitida talab oshsa nima sodir bo'ladi? Agar A va B davlatlari o'rtasida mutlaqo erkin valyuta kursi rejimi bo'lsa va B davlatining valyutasiga talab oshsa, bu nimani anglatadi?
20.	O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlanmagan xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi shartnomalarni qaysi muassasa ro'yxatga oladi?
21.	Valyuta sohasidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq valyuta operatsiyalari nechi xil turga bo'linadi?
22.	Banklar tashqi qarz mablag'larini nima maqsadda jalb qiladi?
23.	Depozit va grantlar banklar tomonidan jalb qilinadigan tashqi qarz mablag'lari shakliga to'g'ri keladimi?
24.	Xorijiy valyutada resurs olib, milliy valyutada kredit berilganda qanday risk yuzaga keladi?
25.	SOFR stavkasi nimani anglatadi?
26.	Yevrobondlar orqali qarz jalb qilishning asosiy ustunligi nimada?
27.	Yevrobondlar orqali mablag' jalb qilishda asosan kimlar investor sifatida ishtirok etishadi?
28.	SOFR stavkasiga asoslangan qarzning asosiy xususiyati nimada?
29.	Global moliya bozorlarida foiz stavkalari oshishi kutilmoqda. Mazkur sharoitda bank xalqaro kapital bozorida yevrobond chiqarish orqali mablag' jalb qilish imkoniyatini ko'rib chiqmoqda. Yevrobondlar AQSH dollarida, o'zgaruvchan foiz stavkasida (SOFRga bog'langan) va 7 yil muddatga chiqarilishi rejalashtirilgan. Ushbu vaziyatda bank uchun qanday ehtimoliy risk mavjud?
30.	Mamlakatda joriy hisob defitsiti mavjud sharoitda markaziy bank rag'batlantiruvchi monetar siyosat olib borsa, eng ehtimoliy natija qanday bo'lishi mumkin?
31.	Sof xalqaro investitsion pozitsiya qanday hisoblanadi?
32.	Qanday holatda mamlakat "sof kreditor" hisoblanadi?
33.	1 AQSH dollari sotib olish uchun 12 600 so'm sarflandi, agarda 1 yevroga 13 400 so'm sotib olish mumkin bo'lsa, 200 AQSH dollariga necha yevro sotib olish mumkin?
34.	Valyuta intervensiyasi nima?
35.	Ahmad Britaniyada ishlaydi. U har oy uyiga 70 fund sterling jo'natadi. Uning oilasi har safar pulni qabul qilib olishganida 40 fundsterlingni dollar valyutasiga ayirboshlab qo'yishadi. Har bir fundsterling 1.56 dollargaga teng va valyuta kursi o'zgarmas bo'lsa, 8 oydan keyin Ahmadning oilasida tahminan qancha dollar zahirasi mavjud bo'ladi?
36.	Xitoy Xalq Respublikasida sotilayotgan iPad narxi ¥2500, huddi shu maxsulot narxi Germaniyada €300. Valyuta ayirboshlash nisbati €1=¥8.85 ga teng bo'lsa, qaysi davlatda aynan shu iPadni sotib olish arzonroq bo'ladi?
37.	O'zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligiga ko'ra "kapital harakati bilan bog'liq operatsiya"ga misol keltiring.

38.	Jismoniy shaxslar valyuta ayirboshlashni qayerda amalga oshirishi mumkin?
39.	Valyuta kursining keskin oʻzgarishi makroiqtisodiyotga qaysi yoʻl bilan taʼsir koʻrsatadi?
40.	Bankda AQSh dollari sotib olish kursi 12 550 soʻm, sotish kursi 12 650 soʻm. Spread necha soʻmni tashkil etadi?
41.	Mijoz Rossiyadan Oʻzbekistonga 500 AQSh dollari ekvivalentida pul oʻtkazdi. Komissiya 2% boʻlsa, oluvchi qancha dollar oladi?
42.	Valyuta ayirboshlash operatsiyalarida “spread” nimani anglatadi?
43.	Valyuta ayirboshlash operatsiyasini amalga oshirishda jismoniy shaxsdan qaysi asosiy hujjat talab etilishi mumkin?
Xalqaro zaxiralarni boshqarish departamenti	
1.	Oʻzbekistonning xalqaro zaxiralari asosan qaysi aktivlarga investitsiya qilingan?
2.	Zaxiralarni yetarlilik darajasi qanday koʻrsatkichlar orqali baholanadi?
3.	Nima uchun markaziy banklar oltin-valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qiladi?
4.	Toʻlov balansidagi defitsit zaxiralarga qanday taʼsir qiladi?
5.	Valyuta intervensiyasi qanday holatlarda amalga oshiriladi?
6.	Zaxiralarni boshqarishda likvidlik, xavfsizlik va daromadlilik oʻrtasida qanday muvozanat saqlanadi?
7.	Valyuta kursining erkin va tartibga solingan rejimlari zaxiralarga qanday taʼsir qiladi?
8.	Davlat obligatsiyalari nega xavfsiz aktiv sifatida qaraladi?
9.	Dyuratsiya tushunchasi nima va u qanday qoʻllaniladi?
10.	Foiz stavkasi oʻzgarishi bilan bogʻliq xatar nima va uni qanday boshqarish mumkin?
11.	Valyuta risklarini xedjirlash usullarini tushuntiring
12.	Investitsion portfellarni diversifikatsiyasi nima va u zaxiralar boshqaruvida qanday ahamiyatga ega?
13.	Suveren risk nima va u investitsiya qarorlariga qanday taʼsir qiladi?
14.	Xalqaro reyting agentliklarining kredit reyting bahosi investitsiya jarayonida qanday ahamiyatga ega?
15.	Real va nominal foiz stavkalarining farqi nimada?
16.	Oʻrtacha qiymat (mean), mediana va moda oʻrtasidagi farqni tushuntiring
17.	Standart chetlashish (standard deviation) nima va u riskni qanday aks ettiradi?
18.	Markaziy bankning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
19.	Monetar siyosat va Fiskal siyosat qanday farqlanishini tushuntirib bering
20.	Monetar siyosatning asosiy instrumentlarini tushuntirib bering
21.	Monetar siyosat instrumentlari iqtisodiyotda yuqori inflyatsion bosimni jilovlashda qanday transmission mexanizmlar orqali taʼsir qiladi?
22.	Valyuta bozorida spekulyatsiya qanday taʼsir koʻrsatadi?

23.	Moliyaviy xosilaviy instrumentlar nima va ularning asosiy turlari qaysilar?
24.	Forward va Fyuchers kontraktlari o'rtasidagi asosiy farq nimada?
25.	Opsionlar (kol va put) qanday ishlaydi?
26.	Derivativ instrumentlarni xyedjirlash va spekulyatsiya uchun qanday ishlatsa bo'ladi?
27.	Svop shartnomalari qanday qo'llaniladi?
28.	Broker bilan dillerning asosiy farqlari nimada?
29.	Spred nima va u nimaga bog'liq?
30.	Moliyaviy bozorlar likvidliligi qanday baholanadi?
31.	Operatsion risk qanday yuzaga keladi, tushuntirib bering?
32.	Moliyaviy instrumentlar narxlarini texnik tahlili qanday amalga oshiriladi?
33.	Fundamental tahlil nima va u nimalarga asoslanadi?
34.	Geosiyosiy risk nima va moliyaviy bozorlarga ta'siri qanday?
35.	Fundamental va texnik tahlilni birgalikda qanday qo'llash mumkin?
36.	Bazel xalqaro standartlari nima va ularning ahamiyati qanday?
37.	Bazel standartlariga muvofiq banklarning kapital yetarliligi va likvidliligi qaysi ko'rsatkichlar asosida baholanadi, ko'rsatkichlar qanday hisoblanadi, qanday minimal talablar qo'yilgan?
38.	Inflyatsiya va valyuta qiymati o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
39.	Agar AQSH foiz stavkalari oshsa, bu AQSH dollari kursi va boshqa valyutalarga qanday ta'sir qiladi?
40.	Xedjirlash strategiyasini amaliy misol bilan tushuntiring
41.	Iqtisodiy inqiroz vaqtlarida qaysi aktivlar xavfsiz hisoblanadi?
42.	Agar zaxira portfelningizdagi asosiy aktivlardan biri bo'lgan AQSH davlat obligatsiyalari daromadliligi keskin oshsa, portfel qiymatiga qanday ta'sir qiladi va qanday chora ko'rasiz?
43.	Agar bir vaqtning o'zida bir nechta global risklar (geosiyosiy inqiroz, neft narxi oshishi, foiz stavkalari o'sishi) yuzaga kelsa, portfelni qanday himoya qilasiz?
44.	Agar portfelningizdagi aktivlar o'rtasida korrelyatsiya krizis paytida keskin oshsa, diversifikatsiya strategiyasini qanday qayta ko'rib chiqasiz?
45.	AQSH dollari indeksi qaysi valyutalar asosida aniqlanadi, ulushlari qanday?
46.	Moliyaviy hisobot va boshqaruv (menejerial) hisoboti o'rtasidagi farq?
47.	Moliyaviy xisobotning qanday turlari mavjud?
48.	Bankning hamda korhonalar moliyaviy xisoboti o'rtasidagi asosiy farqni tushuntirib bering

49.	Aksiya va obligatsiya qanday farqlanadi, aksiyalarning qanday turlari bor va qanday farqlanadi, ularning daromadlik manbalarini tushuntirib bering
50.	Operatsion, investitsion va moliyaviy pul oqimlari o'rtasidagi farqni tushuntirib bering
Xavfsizlik departamenti	
1.	Bank obyektlarida xavfsizlikning asosiy maqsadi nima?
2.	Bank muassasalaridagi xizmat xonalari ularda amalga oshiriladigan operatsiyalarning mohiyati va yo'nalishiga qarab nechta kirish hududiga bo'linadi?
3.	Kassa tarmog'iga kirishga ruxsat beruvchi shifr-belgilar kim tomonidan qo'yiladi va saqlanadi?
4.	Banklarda necha xil ruxsatnomalar mavjud?
5.	Bank muassasasiga ruxsatnomalar asosida kirib-chiqish tartibini tashkil etish va yuritish kimlarga ma'lum bo'lishi kerak?
6.	Bankning qaysi hududlariga videokuzatuv kameralarini o'rnatish man etiladi?
7.	Bankga o'rnatilgan videokuzatuv moslamalaridagi videoyozuv materiallari videoarxivda kamida necha oy muddat saqlanadi?
8.	Pul omborlari va kechki kassa pul ombori qo'riqlash signalizatsiyasining nechta himoya to'siqlari bilan jihozlanadi?
9.	Qaysi kamera turi tunda ham tasvirni ko'rishga imkon beradi?
10.	DVR nima?
11.	Smart kuzatuv tizimi nimani anglatadi?
12.	Qaysi kamera turi aylanish, egilish va yaqinlashtirish xususiyatiga ega?
13.	IP kameralar qanday ishlaydi?
14.	Binoga kirib chiqishni nazorat qilish tizimlarining asosiy vazifasi nimadan iborat?
15.	Signalizatsiya tizimi nima uchun xizmat qiladi?
16.	Shisha sinishini aniqlovchi datchik nima uchun kerak?
17.	Server xonasiga kirish tartibi qanday bo'lishi kerak?
18.	Qo'riqlash pulti nima vazifa bajaradi?
19.	Turniketning asosiy vazifasi?
20.	SKUD tizimi nimani anglatadi?
21.	Metallodetektor nima uchun o'rnatiladi?
22.	Zaxira elektr ta'minoti nima uchun kerak?
23.	Harakat sensori nima vazifa bajaradi?
24.	Turli tizimlarning birlashuvi qanday ataladi?
25.	Xavfsizlik tekshiruvining birinchi bosqichi?

26.	Axborot xavfsizligi siyosati (Information Security Policy) nima va uning asosiy maqsadi nima?
27.	Konfidensial ma'lumotlar tushunchasi va ukarni muhofaza qilish tartibi qanday?
28.	Kiberxavfsizlik insidentlari (Cyber incidents) turlari va ular haqida kimga xabar berish tartibi qanday?
29.	Foydalanuvchilarni autentifikatsiya va avtorizatsiya qilishda qaysi vositalar qo'llaniladi?
30.	Zero Trust Architecture tamoyili nimani anglatadi va tashkilotda qanday joriy etilgan?
31.	Axborot tizimlarida zaxiralash (backup) va tiklash (recovery) jarayonlari qanday amalga oshiriladi?
32.	Tarmoq xavfsizligi vositalari (firewall, IDS/IPS, SIEM) qanday rol o'ynaydi?
33.	Xodimlarning kiber gigiyena (cyber hygiene) qoidalariga rioya qilishi nimani o'z ichiga oladi?
34.	Tashkilotda axborot xavfsizligi siyosatini buzgan xodimga nisbatan qanday choralar ko'riladi?
35.	Bank siri qonuniga muvofiq kimlar uchinchi shaxs hisoblanadi?
36.	Antivirus nima qiladi?
37.	Real-time protection nima?
38.	Virus va malware farqi?
39.	Nega antivirusni yangilab turish kerak?
40.	Kompyuterda virus borligini qanday bilsa bo'ladi?
41.	Active Directory nima?
42.	Domain va Workgroup farqi?
43.	LDAP nima uchun kerak?
44.	Group Policy (GPO) nima qiladi?
45.	Foydalanuvchini domeniga qanday qo'shiladi?
46.	Kuchli parol qanday bo'ladi?
47.	Phishing nima?
48.	2FA nima?
49.	Noma'lum link ochish xavfi?
50.	Ma'lumotlarni qanday himoya qilish mumkin?
Yuridik departamenti	
1.	Yuridik xizmat xodimlari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonun hujjatlarini sanab bering
2.	Yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qaroriga asosan yuridik xizmat xodimlariga qanday imtiyozlar yaratilgan?

4.	Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yoʻnalishlari
5.	Yuridik xizmat xodimini stajirovkadan oʻtkazish tartibi
6.	Yuridik xizmat xodimining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini koʻrib chiqishdagi ishtiroki
7.	2022 – 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy mazmunini aytib bering
8.	Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining turlari va shakllari
9.	Normativ-huquqiy hujjat tushunchasi va turlari
10.	Normativ-huquqiy hujjatlarning oʻzaro nisbati
11.	Normativ-huquqiy hujjatga rasmiy sharh berish tartibi
12.	Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy eʼlon qilish tartibi
13.	Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha faoliyatni amalga oshiruvchi qanday davlat organlari mavjud?
14.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi deganda nima tushuniladi?
15.	Vazirlik, idoralar tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarga huquqiy vorislik deganda nimani tushunasiz?
16.	Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tushuntirib bering
17.	Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish tartibini aytib bering
18.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash tartibi
19.	Gender-huquqiy ekspertiz deganda nimani tushunasiz
20.	Tuman (shahar) darajasidagi davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat koʻrsatish uchun tashkil etilgan Yuridik xizmat koʻrsatish markazlari haqida nimalarni bilasiz?
21.	Oʻzbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali regulation
22.	Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarni qayta koʻrib chiqish
23.	Ijtimoiy sheriklik nima? Uning davlat xususiy sherikchiligi bilan oʻzaro farqi
24.	Parlament nazorati deganda nimani tushunasiz?
25.	Elektron hukumatning asosiy vazifalari
26.	Huquqiy ekspertiza nima?
27.	Mediasiya tushunchasiga taʼrif bering
28.	Normativ-huquqiy hujjatning loyihasini uni qabul qiladigan organga kiritish tartibi
29.	Huquqiy madaniyat va huquqiy negilizm tushunchasiga taʼrif bering
30.	Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish deganda nimani tushunasiz?
31.	Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
32.	Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning qanday siyosiy huquqlari belgilangan?

33.	O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati qanday qoida va normalarga asoslangan?
34.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning qanday shaxsiy huquq va erkinliklari belgilangan?
35.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qanday iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar belgilangan?
36.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari qanday?
37.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq fuqarolarning burchlari nimalardan iborat?
38.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq jamiyatning iqtisodiy negizlari nimalardan iborat?
39.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi qanday?
40.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirish tartibi
41.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutloq vakolatlariga nimalar kiradi?
42.	Qonunlarni qabul qilish hamda kuchga kirish tartibi
43.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanish uchun fuqarolarga qanday talablar qo‘yilgan?
44.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi va hukumat a’zolarini shakllantirish tartibi
45.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq Bosh vazirga ishonchsizlik votumini bildirish asosi va tartibi qanday?
46.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining asosiy vazifalari sifatida nimalar ko‘rsatilgan?
47.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq hokimlarning vakolat muddati hamda tayinlanish tartibi
48.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar qanday tartibda kiritiladi?
49.	Kimlar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega?
50.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qanday hujjatlar qabul qilinadi?
51.	O‘zbekiston Respublikasida saylov tizimini aytib bering
52.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq moliya-kredit hamda bank tizimi
53.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq sudyalarga qo‘yiladigan talablar
54.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipi haqida gapirib bering
55.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq sud tizimi haqida gapirib bering
56.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining vazifalari
57.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qanday ishlarni amalga oshiradi?
58.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari qanday vazifalarni amalga oshiradi?
59.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq Markaziy saylov komissiyasini shakllantirish tartibi

60.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq qanday jamoat birlashmalarini tuzish taqiqlanadi?
61.	Fuqarolik qonun hujjatlarini vaqt bo‘yicha amal qilishi
62.	Yuridik shaxs tushunchasi va turlari
63.	Ashyoviy huquq nima? Unga nimalar kiradi?
64.	Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo‘lish asoslari?
65.	Bitim tushunchasi, turlari hamda shakllarini aytib bering
66.	Bitim va shartnomalarning farqli jihatlarini aytib bering
67.	Da’vo muddati tushunchasi
68.	Emansipasiya tushunchasi
69.	Majburiyat tushunchasi va majburiyatning taraflari
70.	Da’vo muddatini joriy qilishga qo‘yiladigan talablarni sanab o‘ting
71.	Garov tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari
72.	Subsidiar javobgarlik deganda nima tushuniladi?
73.	Nasionalizasiya nima? Uning rekvizitsiyadan farqi nimada?
74.	Mualliflik huquqi obyekti va uning turlari
75.	Fuqarolarning huquq hamda muomala layoqati
76.	Xodimning asosiy mehnat huquqlariga nimalar kiradi?
77.	Mehnat shartnomasi tushunchasi
78.	Mehnat shartnomasi qanday shaklda va qanday muddatga tuziladi?
79.	Jamoa shartnomasi tuzish tartibi
80.	Ishga qabul qilishda dastlabki sinov muddati tushunchasi va dastlabki sinov muddati kimlarga tatbiq etilmaydi?
81.	Qaysi sabablar (asoslar) mavjud bo‘lganda mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asosli hisoblanadi?
82.	Mehnat shartlari deganda nima tushuniladi, qaysi hollarda ish beruvchi mehnat shartlarini xodimning rozilgisiz o‘zgartirishga haqli?
83.	Mehnat shartnomasini bekor qilish yuzasidan ogohlantirish berish tartibi
84.	Qaysi hollarda mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilinganida kasaba uyushmalarining roziligi olinmaydi?
85.	Mehnat shartnomasining taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holatlar bo‘yicha bekor qilinishi
86.	Mehnat qonunchiligi bo‘yicha ayollarga berilgan imtiyozlar
87.	Intizomiy jazo choralarining turlari va intizomiy jazoning amal qilish muddati

88.	Intizomiy jazolarni qo'llanish tartibi qanday?
89.	Mehnat qonunchiligi bo'yicha yillik asosiy ta'til berish tartibi
90.	Mehnatni muhofaza qilish talablari deganda nimani tushunasiz?
91.	Shartnomaviy munosabatlarning asosiy prinsiplari
92.	Xo'jalik shartnomasi tushunchasi
93.	Qachon shartnoma tuzilgan hisoblanadi?
94.	Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish asoslari, tartibi va uning oqibatlari
95.	Xo'jalik shartnomasiga qo'yilgan asosiy talablar
96.	Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga nisbatan qanday javobgarlik choralari ko'riladi?
97.	Ommaviy shartnoma nima?
98.	Oferta va aksept nima?
99.	Ommaviy oferta nima ?
100.	Shartnomaning shakli
101.	Mahsulot yetkazib berish shartnomasi va uning amal qilish muddati
102.	Talabnoma bildirish tartibi
103.	Shartnoma shartlarini bajarmaganlik uchun javobgarlik
104.	Xo'jalik shartnomasini huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi
105.	Davlat xaridlari bo'yicha xarid qilish tartib-taomillarini turlarini sanab bering
106.	Talabnoma bildirishni ko'rib chiqish tartibi va muddatlari
107.	Ko'chmas mulkni sotish shartnomasi va uning shakli
108.	Korxonani sotish shartnomasi tushunchasi
109.	Mulk ijarasi shartnomasi va uning obyektlari tushunchasi
110.	Bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasi tushunchasi
111.	Korxonani ijaraga berish shartnomasi tushunchasi
112.	Lizing shartnomasi, uning obyekti va subyektlari
113.	Qurilish pudrati shartnomasi nima?
114.	Davlat xaridlari doirasida elektron do'kon orqali qanday tovarlarni xarid qilishga yo'l qo'yiladi
115.	To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlarini amalga oshirish deganda nimani tushunasiz?
116.	Olti-sotdi shartnomasining subyektlari kimlar?
117.	Hadya shartnomasiga ta'rif bering

118.	Ayirboshlash shartnomasi nima?
119.	Davlat xaridlari jarayoni qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi
120.	Davlat boshqaruv organlarining shartnomaviy-huquqiy munosabatlar sohasidagi vakolatlari
121.	O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining asosiy vazifalari
122.	Sudlarga tegishlilik va taalluqlilik tushunchalarini yoritib bering
123.	Ma'muriy sudlovga taalluqli ishlar
124.	Fuqarolik sudlovga taalluqli ishlar
125.	Himoya huquqini ta'minlash asoslari
126.	Fuqarolik prosessual muomala layoqati tushunchasi
127.	Fuqarolik ishlarini ko'rishda da'voning bahosi nimalarga asosan belgilanadi?
128.	Qanday holatlar bo'yicha shaxs fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etiladi?
129.	Fuqaroviy da'vogarning hamda fuqaroviy javobgarning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
130.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibi
131.	Qaysi hollarda fuqarolik sudi ish yuritishni to'xtatib turishi shart?
132.	Fuqarolik prosessida arizani ko'rmasdan qoldirish asoslari
133.	Fuqarolik ishlari bo'yicha sudda ish yuritishni tugatish asoslari va tartibi
134.	Qaysi hollarda fuqarolik ishlari bo'yicha sud arizani qabul qilishni rad etadi?
135.	Fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hal qiluv qarori mazmuni
136.	Qanday ishlar iqtisodiy sudlarga taalluqli?
137.	Iqtisodiy sud tomonidan hal etiladigan nizolar
138.	Iqtisodiy sudga beriladigan da'vo arizasining shakli va mazmuni
139.	Iqtisodiy sud da'vo arizasini qabul qilishni qaysi hollarda rad etadi?
140.	Iqtisodiy sud apellyasiya instansiyasining vakolatlari hamda uning qarorlarini qonuniy kuchga kirishi
141.	Iqtisodiy sudga kassasiya shikoyatini (protestini) berish tartibi va uning mazmuni
142.	Sudyalar nomzodiga qo'yiladigan talablar
143.	Sudyalarni saylash va tayinlash tartibi
144.	Sudyalar daxlsizligi qanday ta'minlanadi
145.	Hakamlik sudlari qanday ishlarni ko'radi?
146.	Kimlar hakamlik sudi sudyasi bo'lishi mumkin?
147.	Sudning hal qiluv qarorini qabul qilish jarayonlari haqida gapirib bering

148.	Sud tomonidan ko‘rib chiqiladigan, yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi ishlar deganda nimalarni tushunasiz?
149.	Chet el fuqarolari va tashkilotlarining qanday fuqarolik prosessual huquqlari mavjud?
150.	“Habeas Corpus” instituti haqida nimalarni bilasiz?
Inspeksiya departamenti	
1.	Banklar va nobank kredit tashkilotlari uchun ustav kapitalining (fondining) minimal miqdori qancha?
2.	Regulyativ kapital nima. Regulyativ kapitalning monandlik koeffitsiyenti qanday hisoblanadi va u necha foizdan kam bo‘lmasligi kerak?
3.	Bankning I darajali kapitali tarkibi. I darajali kapitalning monandlik koeffitsiyenti qanday hisoblanadi va u necha foizdan kam bo‘lmasligi kerak?
4.	Bankning I darajali asosiy kapitali tarkibi, I darajali asosiy kapitalning monandlik koeffitsiyenti qanday hisoblanadi va u necha foizdan kam bo‘lmasligi kerak ?
5.	Bankning I darajali qo‘shimcha kapitali tarkibiga nimalar kiradi ?
6.	Bankning II darajali kapitali tarkibiga nimalar kiradi ?
7.	Leveraj ko‘rsatkichi deganda nimani tushunasiz. Leveraj koeffitsiyentining eng kichik darajasi necha foiz miqdorida o‘rnatilgan?
8.	Bank likvidliligi deganda nimani tushunasiz va banklarga likvidlilik bo‘yicha qanday normativlar o‘rnatilgan ?
9.	Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti nima, u qanday hisoblanadi va necha foizdan kam bo‘lmasligi kerak ?
10.	Likvidlilikni qoplash koeffitsiyenti (LCR) nima, u qanday hisoblanadi va necha foizdan kam bo‘lmasligi kerak ?
11.	Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR) nima, u qanday hisoblanadi va necha foizdan kam bo‘lmasligi kerak?
12.	Banklarning yuqori likvidli aktivlariga nimalar kiradi va Markaziy bank tomonidan uning miqdoriga nisbatan qanday talab o‘rnatilgan?
13.	O‘zaro aloqador qarz oluvchilar deganda nimani tushunasiz ?
14.	Banklarga bir qarz oluvchi yoki o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori bo‘yicha qanday normativlar o‘rnatilgan ?
15.	Yirik tavakkalchilik deganda nimani tushunasiz. Banklarga yirik tavakkalchiliklarning umumiy miqdori bo‘yicha qanday normativ o‘rnatilgan ?
16.	Kimlar bankka aloqador shaxslar hisoblanadi ?
17.	Bankka aloqador bitta shaxsga hamda bankka aloqador bo‘lgan barcha shaxslarga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori bo‘yicha qanday normativlar mavjud?
18.	Banklarning qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish va yuridik shaxslarning ustav kapitalida ulushli ishtirok etishlari bo‘yicha qanday

	normativlar mavjud ?
19.	Banklarning ko'chmas mulkka qilgan jami investitsiyalari miqdoriga nisbatan qanday normativ o'rnatilgan ?
20.	Mikrokredit tashkilotlari kapitalining monandligi bo'yicha qanday normativ o'rnatilgan ?
21.	Lombardlar tomonidan jalb etiladigan mablag'lar hajmiga nisbatan qanday normativ o'rnatilgan ?
22.	Valyuta pozitsiyasi nima? Markaziy bank tomonidan banklarga valyuta pozitsiyalari bo'yicha qanday normativlar o'rnatiladi?
23.	Banklar, mikrokredit tashkilotlari va lombardlar tomonidan qarz yuki ko'rsatkichi qachon hisoblanadi. Markaziy bank tomonidan qarz yuki o'sishini cheklash bo'yicha qanday me'yorlar o'rnatilgan ?
24.	Qarz yuki ko'rsatkichi nima?
25.	Prudensial talablarning asosiy maqsadi
26.	Bank risklarini boshqarish tizimining asosiy mas'uliyati kim zimmasida bo'ladi?
27.	Tijorat banklarining risk profili deganda nimani tushunasiz?
28.	Tijorat banklarining risk-appetiti deganda nimani tushunasiz?
29.	Tijorat banklarida tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi nechta himoya chizig'iga ega bo'lishi lozim?
30.	Bank strategiyasi, eng avvalo, nimaga mos bo'lishi lozim?
31.	Tijorat banklarida Kredit riski deganda nimani tushunasiz?
32.	Tijorat banklarida likvidlilik tavakkalchiligi deganda nimani tushunasiz?
33.	Tijorat banklarida Operatsion riski deganda nimani tushunasiz?
34.	Bank kuzatuv kengashining asosiy roli nimadan iborat?
35.	Ichki nazorat tizimining asosiy vazifasi?
36.	Markaziy bank nazoratining strategik maqsadi nimadan iborat?
37.	Tizimli ahamiyatga ega bank tushunchasi nimani anglatadi?
38.	Bank faoliyatini cheklash chorasi, odatda, qachon qo'llaniladi?
39.	Markaziy bankning inspeksiya va tekshirish o'tkazishni amalga oshiruvchi bo'linmalarining vakolatlari, ularning majburiyatlarini taqsimlash kim tomonidan belgilanadi?
40.	Qanday hollarda Markaziy bank tomonidan nazorat qilinishi lozim bo'lgan shaxslarda inspeksiya (tekshiruv) o'tkaziladi?
41.	Bank siri nima?
42.	Bank siri bo'yicha uchinchi shaxslar kimlar hisoblanadi?
43.	Tijorat banklarining aktivlari sifatiga ko'ra qanday toifalarga tasniflanadi?
44.	Muammoli aktivlar tushunchasi nimani anglatadi ?
45.	Tijorat banklarida aktivlar jami qiymatiga nisbatan qancha miqdorda zaxira shakillantiriladi?

46.	Tijorat banklarida aktivlar jami qiymatiga nisbatan zaxiralar nima hisobidan shakllantiriladi?
47.	Tijorat banklarida qaysi holatlarda aktivlarning sifati “shubhali” dye tasniflanadi?
48.	Tijorat banklari tomonidan “Umidsiz” aktivlar balans hisobvaraqlaridan balansdan tashqari hisobvaraqqa o‘tkazilgandan so‘ng qancha muddat mobaynida balansdan tashqari moddalarda aks ettirilishi lozim?
49.	Banklarda Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning jami miqdorini aniqlash formulasini belgilang
50.	Banklarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlari rejasiga ko‘ra bank hisobvaraqlari qanday kategoriyalarga bo‘linadi?
Banklarni prudensial nazorati departamenti / Banklardagi muammoli aktivlarni monitoring qilish xizmati / Banklarda risklarni nazorat qilish departamenti	
1.	Bank xizmatlari va operatsiyalarining autsorsingi deganda nimani tushunasiz?
2.	Bankning likvidiligi deganda nimani tushunasiz?
3.	Quyidagi qaysi holatlarda Markaziy bank banklarning regulativ kapitali miqdorini oshirishni talab qilishga haqli?
4.	Qanday holatlar xavfli va nosog‘lom bank amaliyoti hisoblanadi?
5.	Bank aktivlari sifati qanday toifalarda tasniflanadi va ular bo‘yicha shakllantiriladigan zaxira miqdori qanday?
6.	Likvidlilikni qoplash me‘yoriga qo‘yilgan minimal talablar qanday?
7.	Tijorat bankining yillik moliyaviy hisobotini taqdim qilishga qaysi organ javobgar hisoblanadi?
8.	O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan bank kengashi vakolatiga quyidagilarning qaysi biri kiradi?
9.	Qaysi omil bankning uzoq va qisqa muddatli biznes-maqсадlarini uning barqarorlik va kapital yetarliligi bo‘yicha maqsadlari bilan bog‘lashga imkon beradi?
10.	Agar bank tomonidan kredit berilishi jarayonida kreditor qarz oluvchidan kafillik yoki kafolat ko‘rinishida ta‘minot talab qilsa, risklarni boshqarishda qanday yondashuvdan foydalaniladi?
11.	Risklarga nisbatan bankning haddan tashqari konservativ yondashuvi nimaga olib kelishi mumkin? (bir necha javoblar bo‘lishi umkin)
12.	Riskni boshqarishda “Uch chiziqli himoya” konsepsiyasining mohiyati nimadan iborat?
13.	Kredit tavakkalchiligi (riski) nima?
14.	Likvidlilik tavakkalchiligi (riski) nima?
15.	Stress-test nima?
16.	Bank risk modelida nechta himoya liniyasi bo‘lishi kerak?
17.	Tavakkalchiliklarni boshqarishning samarali tizimi qanday prinsiplarga javob berishi kerak?
18.	Bankning biznes-modeli nima?

19.	Tavakkalchilik limitlari nima?
20.	Operatsion tavakkalchilik nima?
21.	Kredit tavakkalchiligi deganda nimani tushunasiz?
22.	Likvidlilik tavakkalchiligi deganda nimani tushunasiz?
23.	Stress-test tahlili nimani anglatadi?
24.	Bank risk modelida nechta himoya liniyasi mavjud bo'lishi shart?
25.	Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi qanday asosiy prinsiplarga muvofiq bo'lishi kerak?
26.	Bankning biznes-modeli tushunchasiga to'g'ri ta'rif bering
27.	O'zaro aloqador qarz oluvchilar deganda nimani tushunasiz?
28.	Samarali tavakkalchilik tuzilmasi bo'lishi uchun u eng kamida qanday risklarni qamrab olishi kerak?
29.	Qanday valyuta asosiy valyuta deb hisoblanadi?
30.	Leveraj koeffitsiyentining eng kichik darajasi necha foiz miqdorida o'rnatilgan?
31.	Leveraj ko'rsatkichi deganda nimani tushunasiz?
32.	Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyentiga qo'yilgan minimal talablar qanday?
33.	Bazel III standartlariga asosan banklarning kapitali va likvidliliigi talablari bo'yicha qanday asosiy yangiliklar joriy etildi?
34.	Kapitalga nisbatan qanday qo'shimcha buferlar joriy etildi?
35.	Bank likvidliliigi tushunchasiga to'g'ri ta'rif bering
36.	Yirik tavakkalchilik deganda nimani tushunasiz?
37.	Banklarga yirik tavakkalchiliklarning umumiy miqdori bo'yicha qanday normativ o'rnatilgan?
38.	Aktivning jami qiymati deganda nima tushuniladi?
39.	Xaridor tomonidan bank sotib olinishida uning sof aktivlari qiymatidan ortiq to'lanadigan summa nima deb ataladi?
40.	Bankka aloqador bitta shaxsga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko'p miqdori qancha?
41.	Bankka aloqador bo'lgan barcha shaxslarga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko'p miqdori qancha?
42.	Qo'shilgan kapital nima?
43.	Kapital tarkibiga oid to'g'ri fikrni toping
44.	Quyidagilardan qaysi biri I darajali kapital tarkibiga kiritilmaydi?
45.	II darajali kapitalning qanday qismi regulyativ kapital tarkibiga kiritilmaydi?
46.	Muammoli aktivlarga quyidagilardan qaysi biri kiradi?
47.	Kapital monandligiga (yetarliligiga) qo'yilgan amaldagi talablar qanday?
48.	Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

49.	Banklar o‘zlarining likvidlilik holatlarini qancha muddatda stress-testdan o‘tkazishlari lozim?
50.	Bank kapitalidan samarali foydalanish koeffitsiyenti (immobilizatsiya koeffitsiyenti) qanday hisoblanadi?
Jamoatchilik bilan aloqalar va kommunikatsion siyosat departementi	
1.	Markaziy bank inflyatsiya bo‘yicha qaror qabul qildi. Bu qarorni aholiga tushuntirish uchun qanday kommunikatsiya strategiyasi ishlab chiqish zarur?
2.	Davlat tashkiloti kommunikatsiyasining asosiy maqsadi nimadan iborat?
3.	Kommunikatsiya kampaniyasi muvaffaqiyati qanday KPilar orqali baholanadi?
4.	Bir xil xabarni aholi, jurnalist va ekspertlarga qanday usullarda yetkazish kerak?
5.	Markaziy bankka nisbatan ishonchni oshirish uchun qanday tashabbuslarni taklif qilgan bo‘lardingiz?
6.	Telegram kanallarda “banklar yopilyapti” degan feyk xabar tarqaldi. Birinchi 60 daqiqa ichida qanday harakat qilasiz?
7.	Markaziy bank rahbarining gaplari ijtimoiy tarmoqlarda noto‘g‘ri talqin qilindi. Vaziyatni qanday boshqarish zarur?
8.	Axborot inqirozida birinchi navbatda tezkorlik muhimmi yoki aniqlik? Nega?
9.	Krizis paytida qaysi ma’lumotlarni darhol e’lon qilish mumkin emas?
10.	Ishonchni yo‘qotgan auditoriya bilan qayta kommunikatsiyani qanday yo‘lga qo‘yish zarur?
11.	“Asosiy stavka 1 foizga oshirildi” mavzusida aholi uchun 50 so‘zli xabar yozing
12.	Ushbu sarlavhani qanday ko‘rinishda o‘zgartirish mumkin: “Markaziy bank navbatdagi qarorni qabul qildi
13.	Murakkab iqtisodiy atamani 16 yoshli o‘quvchi tushunadigan tilda izohlab bering
14.	Matbuot relizida eng muhim ma’lumot qaysi qismda joylashishi kerak?
15.	Qaysi holatlarda rasmiy tildan voz kechib, soddaroq tildan foydalanish kerak?
16.	Jurnalist rasmiy e’lon qilinmagan ma’lumotni so‘rasa, qanday javob berasiz?
17.	Matbuot anjumani tashkil qilishda eng ko‘p uchraydigan xatolar nimalar?
18.	Qanday jurnalistni professional deb baholaysiz?
19.	Media monitoring natijalari rahbariyatga qanday taqdim etilishi kerak?
20.	Nega ba’zi press-relizlar ommaviy axborot vositalarida chiqmaydi?
21.	Markaziy bank uchun Telegram, Instagram va LinkedIn platformalarida kontent qanday farq qilishi kerak?
22.	Virusli kontent va foydali kontent o‘rtasida qanday farq bor?
23.	Bir oylik kontent rejasini tuzishda qaysi omillarni hisobga olasiz?
24.	Nega ba’zi rasmiy postlar kam ko‘riladi?
25.	Negativ izohlarni o‘chirish kerakmi?
26.	Post 100 ming ko‘rildi, ammo juda kam reaksiya oldi. Bu nimani anglatishi mumkin?

27.	Qanday holatda ko‘p ko‘rilgan kontentni muvaffaqiyatsiz deb baholash mumkin?
28.	Auditoriya ehtiyojlarini qanday o‘rganasiz?
29.	Kontent samaradorligini baholash uchun qaysi metrikalar muhim?
30.	Kommunikatsiya qarorlarini qabul qilishda ma’lumotlar tahlili qanday rol o‘ynaydi?
31.	Valyuta kursi keskin o‘zgardi. Aholi orasida xavotir kuchaymoqda. Kommunikatsiya rejangizni tushuntiring.
32.	Bloger Markaziy bank haqida noto‘g‘ri ma’lumot tarqatdi. Nima qilish zarur?
33.	Yangi to‘lov xizmati ishga tushirildi. Uni ommalashtirish uchun qanday kompaniya tayyorlaysiz?
34.	Fuqaro ijtimoiy tarmoqda bank tizimidan norozi post qoldirdi. Qanday javob berasiz?
35.	Kiberfiribgarliklar ko‘paygan paytda aholini xabardor qilish uchun qanday kontent ishlab chiqasiz?
36.	Rahbar matbuot uchun juda texnik matn tayyorladi. Uni qanday qayta ishlaysiz?
37.	Rahbar intervyu berishdan oldin qanday tayyorgarlik ko‘rishi kerak?
38.	Rahbar bilan jurnalist o‘rtasida bahsli vaziyat yuzaga kelsa, qanday harakat qilasiz?
39.	Rahbar noto‘g‘ri ma’lumot aytsa, qanday yo‘l tutasiz?
40.	Kommunikatsiya bo‘limi rahbariyat uchun qanday qiymat yaratadi?
41.	Davlat kommunikatsiyasida eng muhim tamoyil qaysi?
42.	Kommunikatsiya mutaxassisi uchun eng muhim 3 ko‘nikmani ayting
43.	Oxirgi bir yilda qaysi PR yoki kommunikatsiya kampaniyasi sizga ma’qul bo‘ldi va nega?
44.	Sun’iy intellekt kommunikatsiya sohasini qanday o‘zgartirmoqda?
45.	Kelajakda davlat tashkilotlari kommunikatsiyasi qaysi tomonga rivojlanadi deb o‘ylaysiz?
46.	Nega biz aynan sizni ishga olishimiz kerak?
47.	Sizning eng katta professional xatoyingiz qanday bo‘lgan?
48.	Agar rahbaringiz fikringizga qo‘shilmasa, qanday yo‘l tutasiz?
49.	Siz tayyorlagan kompaniya muvaffaqiyatsiz chiqqan holat bo‘lganmi? Nima o‘rgangansiz?
50.	Agar bugun ishga qabul qilinsangiz, birinchi 90 kunda qanday natija ko‘rsatishni rejalashtirasiz?
Kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish departamenti va banklarni sanatsiya qilish va tugatish boshqarmasi	
1.	Bankni sanatsiya qilish deganda nima tushuniladi?
2.	To‘lovga qobiliyatsiz bank qaysi hollarda sanatsiya qilinadi va qaysi hollarda majburiy tugatilishi mumkin?
3.	Bankni sanatsiya qilish doirasida qanday kafolatlar berilishi mumkin?
4.	Bankni sanatsiya qilishni moliyalashtirishning qanday manbalari mavjud va ulardan qay tartibda foydalaniladi?
5.	Bankni sanatsiya qilishda qanday sanatsiya vositalar qo‘llanilishi mumkin?

6.	Sanatsiya jarayonida Markaziy bank, Omonatlarni kafolatlash agentligi va Moliyaviy barqarorlik kengashining roli qanday?
7.	Sanatsiya qilish jamg'armasi nima va uning O'zbekistondagi modeli boshqa davlatlardagi modellardan nimasi bilan farq qiladi?
8.	Muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz amalga oshirilgan sanatsiya holatlari bo'yicha qanday misollarni bilasiz?
9.	Tizimli ahamiyatga molik bankda jiddiy likvidlilik tanqisligi va to'lovga qobiliyatsizlik xavfi yuzaga kelgan holatda, potensial investor mavjud bo'lmagan sharoitda, dastlabki 48 soat ichida qanday vositalar va choralarni qo'llagan bo'lardingiz?
10.	Sanatsiya qilish jarayoni boshlanganidan so'ng bankning aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi tafovut kutilganidan ikki baravar yuqori ekanligi aniqlansa, qanday choralar ko'rgan bo'lardingiz?
11.	Qonunchilikda banklar uchun qanday prudensial normativlar belgilangan? Ularning mohiyati nimalardan iborat?
12.	Bazel III standartining asosiy mohiyati haqida fikr bildiring. Uning avvalgi standartlardan asosiy farqlari nimalardan iborat?
13.	Banklar regulativ kapitali nima va u qanday elementlardan tashkil topgan? Bankning regulativ kapitali, ustav kapitali hamda iqtisodiy kapitali
14.	Markaziy bankning talablariga ko'ra bank tomonidan qarzdor jismoniy shaxslarning to'lovga qobiliyatligini baholashda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?
15.	Banklarda korporativ boshqaruv tizimi deganda nimani tushunasiz? Uning lozim darajada joriy qilinishi nima uchun zarur?
16.	Banklarda qanday maxsus qo'mitalar tashkil etiladi va ularning vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
17.	Banklarning tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi deganda nima tushuniladi?
18.	Banklarda himoyaning uch chizig'i deganda nima tushuniladi? Bunda tegishli tarkibiy bo'linmalarning vazifalari nimalardan iborat?
19.	Bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qanday asosiy (sezilarli) tavakkalchiliklarni bilasiz? Ularning mohiyati nimalardan iborat?
20.	Likvidlilik tavakkalchiligi tushunchasini izohlang, uning yuzaga kelish sabablari hamda bank faoliyatiga ta'siri qanday bo'lishi mumkin?
21.	Bozor tavakkalchiligi nima degani hamda uning qanday turlari mavjud? U qanday holatlarda yuzaga keladi? Bank portfeli (banking book) hamda savdo portfeli (trading book) mohiyati nimadan iborat?
22.	Operatsion tavakkalchilik tushunchasiga izoh bering. Hozirgi kunda uning dolzarbligi nimalardan iborat?
23.	Bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich nima deb ataladi?
24.	Bankka aloqador shaxslarga kimlar kiradi? Bank tomonidan bunday shaxslarga kredit ajratilayotganda nimalarga e'tibor qaratilishi lozim?
25.	Bank aktivlari sifatini tasniflash tizimi haqida nimalarni bilasiz? Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun qanday turdagi va qancha miqdordagi zaxiralar shakllantiriladi? Aktivlar bo'yicha zaxiralarni yaratish nima uchun zarur hisoblanadi?

26.	9-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (IFRS 9) muvofiq aktivlar sifatiga ko‘ra qanday guruhlarga (staging) bo‘linadi? Kutilgan kredit yo‘qotishlari (ECL) qanday aniqlanadi?
27.	Markaziy bank tomonidan banklar faoliyatini tartibga solish va prudensial nazoratni amalga oshirishdan asosiy maqsad nimadan iborat?
28.	“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning asosiy maqsadi nimadan iborat?
29.	Normativ-huquqiy hujjat deganda nimani tushunasiz?
30.	Normativ-huququy hujjat turlarini aytib bering?
31.	Qaysi hujjat eng yuqori yuridik kuchga ega?
32.	Normativ-huquqiy hujjatlar kim tomonidan qabul qilinadi?
33.	Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bosqichlarini aytib bering?
34.	Hujjatning loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazishdan maqsad nima?
35.	Normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tafovut bo‘lsa, qaysi hujjat qo‘llaniladi?
36.	Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korruptsiyaviy omillarni sanab berihg?
37.	Davlat ro‘yxatidan o‘tgan normativ-huquqiy hujjatlar qanday muddatlarda kuchga kiradi?
38.	Kafolatlangan omonat bo‘yicha kompensatsiya degani nima? Qanday omonatlar kafolatlangan va kafolatlangan omonat miqdori qanchani tashkil etadi? Kafolatlanmaydigan omonatlar ham bormi? Bor bo‘lsa, ularni sanab bering?
39.	Kafolatlangan omonat bo‘yicha kompensatsiya qaysi mablag‘lar hisobidan va kim tomonidan to‘lab beriladi? Omonatlarni kafolatlash jamg‘armasi qanday manbalar hisobidan shakllantiriladi?
40.	Mikromoliya tashkiloti 300 mln so‘mdan ortiq miqdorda mablag‘ ajratishga haqlimi?
41.	Lombard mikromoliya tashkilotimi? U qancha miqdorgacha mablag‘ ajratadi?
42.	Banklar uchun taqiqlangan yoki cheklangan faoliyat turlarini sanab bering?
43.	Banklar yuridik shaxslarni tashkil etishga va (yoki) yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) ulushlarni yoki aksiyalarni olishga haqlimi? Agar haqli emas deb hisoblasangiz, qonunchilikda nazarda tutilgan istisno holatlar mavjudmi, ushbu holatlar mavjud bo‘lsa, ularni sanab bering.
44.	Markaziy bank mijozlarga bank xizmatlarini ko‘rsatishga haqlimi?
45.	Markaziy bank va tijorat banki o‘rtasidagi farqni aytib bering?
46.	Kredit va qarz o‘rtasidagi farq nimada?
47.	Bank faoliyatiga ta’rif bering.
48.	Ipoteka nima?
49.	Islomiy bank faoliyati hamda an’anaviy bank faoliyati o‘rtasidagi asosiy o‘xshashliklar hamda farqlar nimalardan iborat?

50.	Islomiy moliyada qo'llaniladigan asosiy shartnoma turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering
51.	Islomiy moliya sohasini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha mavjud milliy qonunchilik asoslari haqida ma'lumot bering
52.	Islomiy moliya sohasida xalqaro standartlarni ishlab chiquvchi qanday tashkilotlar mavjud? Ushbu tashkilotlar faoliyatlari haqida ma'lumot bering
53.	Xorijiy tajribada islomiy banklar uchun likvidlikni ta'minlashning qanday vositalari mavjud?
54.	Islomiy bank faoliyatida qanday usullar (shartnomalar) orqali mijozlar moliyalashtirilishi (islomiy moliya aktiv operatsiyalari) mumkin?
55.	Islomiy bank faoliyatida qanday usullar (shartnomalar) orqali pul mablag'larini jalb qilish (islomiy moliya passiv operatsiyalari) mumkin?
56.	Islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarda korporativ boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
57.	Islomiy bank faoliyati bilan bog'liq tavakkalchiliklar va ularni boshqarish tizimi haqida ma'lumot bering
58.	To'laqonli islomiy banklar va an'anaviy banklardagi islomiy "darcha"lar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
Ma'lumotlarni boshqarish departamenti	
1.	Data warehouse nima? / Что такое data warehouse?
2.	SQL'da HAVING operatori qachon ishlatiladi? / Когда используется оператор HAVING в SQL?
3.	Data mart nima uchun ishlatiladi? / Для чего используется data mart?
4.	Qaysi jarayon ma'lumotlarni real vaqtga yaqin qayta ishlashni anglatadi? / Какой процесс означает обработку данных почти в реальном времени?
5.	Qaysi tizim operatsion (kundalik) tranzaksiyalarni boshqaradi? / Какая система управляет операционными транзакциями?
6.	Qaysi operator ikki jadvalni umumiy ustun orqali bog'laydi? / Какой оператор объединяет таблицы по общему полю?
7.	Metama'lumotlar nima uchun kerak? / Почему нужны метаданные?
8.	Qaysi tushuncha ma'lumotlar formatining bir xil bo'lishini ta'minlaydi? / Какое понятие обеспечивает единый формат данных?
9.	Data governance doirasida yangi hisobot yaratishda eng muhim talab nima? / Какое требование является ключевым при создании нового отчёта в рамках data governance?
10.	Ma'lumotning hayotiy sikli deb nimaga aytiladi? / Что такое жизненный цикл данных?
Jarayonlarni boshqarish xizmati	
1.	Как вы своими словами объясните, что такое «бизнес-процесс»? / Ўз сўзларингиз билан «бизнес-жараён» нима эканини қандай тушунтирасиз?
2.	Какие три ключевых фактора, по вашему мнению, оказывают наибольшее влияние на эффективность бизнес-процессов? / Сизнинг фикрингизча, бизнес жараёнлари самарадорлигига энг катта таъсир кўрсатадиган учта асосий омил қайсилар?

3.	Что вас привлекает именно в работе с процессами? / Жараёнлар билан ишлашда сизни айнан нима қизиқтиради?
4.	Чем работа над процессами в государственном учреждении отличается от работы в коммерческой организации? / Давлат муассасасида жараёнлар устида ишлаш тижорат ташкилотидаги ишдан нимаси билан фарқ қилади?
5.	Назовите профессиональное достижение, которым вы гордитесь, и поясните почему. / Фахрланадиган касбий ютуғингизни айтинг ва нима учунлигини тушунтиринг.
6.	Приведите пример процесса из повседневной жизни. Что в нём можно улучшить? / Кундалик ҳаётдан бирор жараёнга мисол келтиринг. Унда нимани яхшилаш мумкин?
7.	Как вы понимаете выражение «оптимизация процесса»? / «Жараённи оптималлаштириш» иборасини қандай тушунасиш?
8.	Чем процесс отличается от проекта? / Жараён лойиҳадан нимаси билан фарқ қилади?
9.	Что для вас важнее в работе: следовать инструкции или искать улучшения? Почему? / Ишда сиз учун нима муҳимроқ: йўриқномага амал қилишми ёки яхшилаш имкониятларини излашми? Нима учун?
10.	Как вы планируете развиваться в этой профессии в ближайшие 2–3 года? Яқин 2–3 йил ичида ушбу касбда қандай ривожланишни режалаштиряпсиз?
11.	Если в отделе одна и та же задача выполняется разными сотрудниками по-разному — это проблема или нет? Почему? / Агар бўлимда бир хил вазифа турли ходимлар томонидан турлича бажарилса — бу муаммоми ёки йўқ? Нима учун?
12.	С чего вы начнёте, если вам поручат описать незнакомый процесс? / Агар сизга нотаниш жараённи тавсифлаш топширилса, нимадан бошлайсиз?
13.	Как понять, что процесс работает неэффективно? / Жараён самарасиз ишлаётганини қандай тушуниш мумкин?
14.	Какие данные вы бы собрали, чтобы оценить работу любого процесса? / Ҳар қандай жараён ишини баҳолаш учун қандай маълумотларни йиғган бўлардингиз?
15.	Что важнее при оптимизации: скорость, качество или стоимость? Обоснуйте. / Оптималлаштиришда қайси бири муҳимроқ: тезлик, сифат ёки харажат? Асослаб беринг.
16.	Как вы расставите приоритеты, если одновременно поступило 5 заявок на оптимизацию? / Агар бир вақтнинг ўзида оптималлаштириш бўйича 5 та ариза келиб тушса, устуворликларни қандай белгилайсиз?
17.	Опишите ситуацию, где вы заметили неэффективность и предложили решение. / Самарасизликни пайқаб, ечим таклиф қилган вазиятингизни тасвирлаб беринг.
18.	Как вы поступите, если руководитель и исполнитель описывают процесс по-разному? / Агар раҳбар ва ижрочи жараённи турлича тасвирласа, қандай йўл тутасиз?
19.	Как вы поступите, если данных для анализа недостаточно? / Агар таҳлил учун маълумотлар етарли бўлмаса, қандай

	ҳаракат қиласиз?
20.	Что такое «узкое место» (bottleneck) в процессе, как вы это понимаете? / Жараёндаги «тор жой» (bottleneck) нима, буни қандай тушунасиз?
21.	Слышали ли вы о методологиях Lean, Six Sigma, BPMN? Что знаете о любой из них? / Lean, Six Sigma, BPMN методологиялари ҳақида эшитганмисиз? Улардан бири ҳақида нималарни биласиз?
22.	Что такое схема и зачем она нужна? / Схема нима ва у нима учун керак?
23.	Какие программы вы используете для работы с документами и данными (Excel, Visio, Word и др
24.	Что такое KPI и как он связан с процессами? / KPI нима ва у жараёнлар билан қандай боғлиқ?
25.	Как, на ваш взгляд, цифровизация влияет на банковские процессы? / Сизнингча, рақамлаштириш банк жараёнларига қандай таъсир қилади?
26.	Что такое регламент и зачем он нужен в государственном учреждении? / Регламент нима ва у давлат муассасасида нима учун керак?
27.	Чем отличается «как есть» (AS-IS) от «как должно быть» (TO-BE)? / «Ҳозир қандай» (AS-IS) «қандай бўлиши керак» (TO-BE) дан нимаси билан фарқ қилади?
28.	Как вы понимаете термин «автоматизация процесса»? / «Жараённи автоматлаштириш» атамасини қандай тушунасиз?
29.	Какие риски возникают при изменении устоявшегося процесса? / Шаклланган жараённи ўзгартиришда қандай хавфлар юзага келади?
30.	Что делать, если в двух внутренних документах есть противоречие? / Агар икки ички ҳужжатда зиддият бўлса, нима қилиш керак?
31.	Как вы будете брать информацию у сотрудника, который не хочет делиться деталями работы? / Иш тафсилотлари билан бўлишишни хоҳламаётган ходимдан маълумотни қандай оласиз?
32.	Что делать, если сотрудники сопротивляются изменениям процесса? / Агар ходимлар жараён ўзгаришларига қаршилик кўрсатса, нима қилиш керак?
33.	Как объяснить сложную схему процесса человеку без технического образования? / Техник маълумотга эга бўлмаган инсонга мураккаб жараён схемасини қандай тушунтирасиз?
34.	Как вы поступите, если ваше предложение по улучшению отклонит руководитель? / Агар яхшилаш бўйича таклифингизни раҳбар рад этса, қандай йўл тутасиз?
35.	Как вы фиксируете договоренности после рабочих встреч? / Ишчи учрашувлардан кейин келишувларни қандай қайд этасиз?
36.	Насколько важно умение слушать в этой профессии? Почему? / Ушбу касбда тинглай олиш қобилияти қанчалик муҳим?

	Нима учун?
37.	Как вы будете работать с сотрудниками старшего возраста, которые работают «по старинке»? / «Эски усулда» ишлашга ўрганган катта ёшдаги ходимлар билан қандай ишлайсиз?
38.	Что для вас важнее в команде — согласие или конструктивный спор? / Жамоада сиз учун қайси бири муҳимроқ — келишувми ёки конструктив баҳсми?
39.	Как вы реагируете на критику вашей работы? / Ишингизга билдирилган танқидга қандай муносабатда бўласиз?
40.	Опишите, как бы вы организовали серию из 10+ интервью с сотрудниками разных уровней. / Турли даражадаги ходимлар билан 10 тадан ортиқ интервью сериясини қандай ташкил этардингиз?
41.	Какие функции Центрального банка вы знаете? / Марказий банкнинг қандай функцияларини биласиз?
42.	В чем заключается специфика принятия решений в государственных финансовых учреждениях? / Давлат молия муассасаларида қарор қабул қилишнинг ўзига хослиги нимада?
43.	Какие ограничения, по вашему мнению, есть у госучреждения при изменении процессов? / Сизнингча, жараёнларни ўзгартиришда давлат муассасасида қандай чекловлар мавжуд?
44.	Почему банковская сфера особенно требовательна к качеству процессов? / Нима учун банк соҳаси жараёнлар сифатига айниқса юқори талаб қўяди?
45.	Какие требования к обработке и хранению данных должны соблюдаться в банковской сфере? / Банк соҳасида маълумотларни қайта ишлаш ва сақлаш бўйича қандай талабларга риоя қилиниши керак?
46.	Какие реформы в финансовом секторе Узбекистана вам известны? / Ўзбекистон молия секторидаги қайси ислохотлар сизга маълум?
47.	Почему функции регулирования и надзора важны для банковского сектора? / Нима учун тартибга солиш ва назорат функциялари банк сектори учун муҳим?
48.	Почему процессы в ЦБ нельзя менять быстро и без согласований? / Нима учун Марказий банкдаги жараёнларни тез ва келишувларсиз ўзгартириб бўлмайди?
49.	Какие, по-вашему, главные вызовы стоят перед банковской системой Узбекистана? / Сизнингча, Ўзбекистон банк тизими олдида турган асосий чақириқлар нималар?
50.	Если бы у вас была возможность улучшить один процесс в любом госучреждении — какой и почему? / Агар сизда исталган давлат муассасасида битта жараённи яхшилаш имконияти бўлса, қайси жараённи танлар эдингиз ва нима учун?
Strategik rivojlanish va loyihalarni boshqarish departamenti	
1.	Loyiha va operatsion faoliyatda boshqaruv yondashuvi qanday farqlanadi va asosiy e'tibor qaysi jihatlariga qaratiladi? / Чем

	отличается подход к управлению проектной и операционной деятельностью, и на какие аспекты делается основной акцент?
2.	Loyiha rahbari loyiha maqsadlariga erishishni ta'minlash uchun resurslarni, muddatlarni hamda manfaatdor tomonlar bilan kommunikatsiyani qanday boshqarishi lozim? / Каким образом руководитель проекта должен управлять ресурсами, сроками и коммуникацией с заинтересованными сторонами, чтобы обеспечить достижение целей проекта?
3.	Loyiha boshqaruvidagi "uchlik cheklov" muvozanati loyiha qarorlariga qanday ta'sir qiladi? / Как баланс «тройного ограничения» влияет на проектные решения?
4.	Lessons Learned жараёни лойиҳа давомида йўл қўйилган хато ва камчиликларни такрорламаслик ҳамда кейинги босқичларда тўпланган тажрибадан самарали фойдаланишни қандай таъминлайди? / Как процесс Lessons Learned обеспечивает недопущение повторения ошибок и недостатков, допущенных в ходе проекта, а также эффективное использование накопленного опыта на последующих этапах?
5.	Agile yondashuvi qanday loyihalarda samarali bo'ladi? / В каких проектах Agile-подход бывает эффективным?
6.	Waterfall usulini qo'llashda bosqichlar ketma-ketligi, nazorat va o'zgarishlarni boshqarish qanday tashkil etilishi kerak? / Как при применении подхода Waterfall должны быть организованы последовательность этапов, контроль и управление изменениями?
7.	Project Life Cycle davomida loyiha rahbari nazorat va muvofiqlashtirish ishlarini qanday tashkil etishi lozim? / Как руководитель проекта должен организовать контроль и координацию работ в течение Project Life Cycle?
8.	Deliverable sifatini baholash, qabul qilish va manfaatdor tomonlarga yetkazish jarayoni loyiha natijasiga qo'yiladigan talablarni ta'minlash uchun qanday tashkil etilishi kerak? / Как должен быть организован процесс оценки качества, приёмки и передачи Deliverable заинтересованным сторонам для обеспечения требований к результату проекта?
9.	Loyiha boshqaruvida Change Request bilan ishlash tartibi o'zgarishlarni baholash, kelishish va nazorat qilishda qanday ahamiyatga ega? / Как порядок работы с Change Request помогает оценивать, согласовывать и контролировать изменения в проектом управлении?
10.	Quyidagi holatda loyiha rahbari axborot xavfsizligi riski va loyiha muddati o'rtasidagi ziddiyatni hisobga olib, qaror qabul qilish va keyingi harakatlarni tashkil etishda qanday yondashishi kerak? Holat: kompaniya yangi dasturiy platformani joriy qilmoqda. Yakuniy sinovlar paytida ma'lumotlar bazasida axborot xavfsizligi zaifliklari aniqlandi. Ularni bartaraf etish loyiha muddatini bir necha haftaga uzaytiradi, biroq zaifliklar tuzatilmasdan platformani ishga tushirish maxfiy ma'lumotlar oshkor bo'lishi xavfini keltirib chiqaradi. Rahbariyat esa dastlabki muddatga rioya qilishni talab qilmoqda. / Как руководитель проекта должен подойти к принятию решения и организации дальнейших действий в следующей ситуации с учётом конфликта между риском информационной безопасности и сроками проекта? Ситуация: компания внедряет новую программную платформу. В ходе

	финального тестирования выявлены уязвимости информационной безопасности в базе данных. Их устранение увеличит срок проекта на несколько недель, однако запуск без исправления может привести к раскрытию конфиденциальной информации. Руководство требует сохранить первоначальный срок.
11.	Work Breakdown Structure loyihadagi ishlarni rejalashtirish, nazorat qilish hamda muddat, resurs va mas'uliyatlarni boshqarishda qanday ahamiyatga ega? / Какое значение имеет Work Breakdown Structure для планирования и контроля проектных работ, а также управления сроками, ресурсами и ответственностью?
12.	Loyihadagi manfaatdor tomonlarni aniqlashda ularning loyihaga ta'siri hamda loyiha natijalarining ularning manfaatlari, faoliyati yoki kutilmalariga ta'siri qanday baholanadi? / Как при определении заинтересованных сторон проекта оценивается их влияние на проект, а также влияние результатов проекта на их интересы, деятельность или ожидания?
13.	Loyihada risklarni aniqlash, baholash, kamaytirish va monitoring qilishni qamrab olgan risklarni boshqarish jarayoni qanday tashkil etilishi kerak? / Как должен быть организован процесс управления рисками в проекте, включая их выявление, оценку, снижение и мониторинг?
14.	Scope Creep holatini nazorat qilishda uning loyiha qamrovi, muddati, byudjeti, sifati va manfaatdor tomonlar kutilmalariga ta'siri qanday hisobga olinishi kerak? / Как при контроле Scope Creep следует учитывать его влияние на содержание, сроки, бюджет, качество и ожидания заинтересованных сторон?
15.	Stakeholder Registerda manfaatdor tomonlarning roli, ta'siri, kutilmalari va kommunikatsiya ehtiyojlarini aks ettirish loyiha boshqaruvida qanday ahamiyatga ega? / Какое значение для управления проектом имеет отражение ролей, влияния, ожиданий и коммуникационных потребностей заинтересованных сторон в Stakeholder Register?
16.	Kick-off Meeting loyiha boshida maqsadlar, rollar, mas'uliyatlar, ish tartibi va kutilayotgan natijalarni kelishib olishda qanday ahamiyatga ega? / Какое значение имеет Kick-off Meeting для согласования целей проекта, ролей, ответственности, порядка работы и ожидаемых результатов в начале проекта?
17.	Loyiha jadvalini tuzishda vazifalar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash kritik yo'l, kechikishlarning oldini olish va resurslarni optimallashtirish nuqtayi nazaridan qanday ahamiyatga ega? / Какое значение имеет определение зависимостей между задачами при составлении проектного графика с точки зрения критического пути, предотвращения задержек и оптимизации ресурсов?
18.	Overallocation holatida loyiha rahbari resurslar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish uchun qanday choralar ko'rishi kerak? / Какие меры должен принять руководитель проекта для устранения проблем, связанных с Overallocation ресурсов?
19.	Quyidagi holatda o'zgarish talabini ko'rib chiqish va uning loyiha qamrovi, muddati, xarajati hamda manfaatdor tomonlar manfaat va kutilmalariga ta'sirini baholash tartibi qanday tashkil etilishi kerak? Holat: siz loyiha rahbari sifatida yangi mahsulotni bozorga chiqarish loyihasini boshqaryapsiz. Marketing bo'limi mahsulot dizaynini o'zgartirishni so'ramoqda, biroq bu loyiha muddatini

	uzaytiradi. / Как должен быть организован порядок рассмотрения запроса на изменение и оценки его влияния на содержание, сроки, стоимость, интересы и ожидания заинтересованных сторон в следующей ситуации? Ситуация: вы как руководитель проекта управляете выводом нового продукта на рынок. Маркетинговый отдел просит изменить дизайн продукта, однако это приведёт к увеличению сроков проекта.
20.	Quyidagi holatda aniqlangan xatolar bilan ishlash tartibi qanday tashkil etilishi kerak? Holat: siz yangi mobil ilovani ishlab chiqish loyihasini boshqaryapsiz. Test jarayonida kichik xatolar aniqlanmoqda, ammo ularni bartaraf etish loyiha muddatiga va mahsulotdan foydalanishga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. / Как должна быть организована работа с выявленными ошибками в следующей ситуации? Ситуация: вы управляете проектом разработки нового мобильного приложения. В процессе тестирования выявляются незначительные ошибки, но их устранение не оказывает существенного отрицательного влияния на сроки проекта и использование продукта.
21.	Nima uchun aynan Strategik rivojlanish tashabbuslarini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish boshqarmasida ishlashni xohlaysiz? / Почему вы хотите работать именно в Управлении по разработке и координации инициатив стратегического развития?
22.	Sizningcha, Strategik rivojlanish tashabbuslarini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish boshqarmasining tashkilotdagi asosiy vazifasi nimadan iborat? / В чем, по вашему мнению, заключается основная задача Управления по разработке и координации инициатив стратегического развития в организации?
23.	Strategiyani ishlab chiqish va strategiyani amalga oshirish o'rtasidagi farq nimada? / В чем разница между разработкой стратегии и реализацией стратегии?
24.	Agar strategik KPI bajarilmayotgan bo'lsa, uning asosiy sababini qanday aniqlaysiz? / Если стратегический KPI не выполняется, как вы определите его основную причину?
25.	Strategik tashabbusning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini baholash uchun qanday ma'lumotlar kerak bo'ladi? / Какие данные необходимы для оценки успешности реализации стратегической инициативы?
26.	To'g'ri ishlab chiqilgan KPI qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak? / Какими характеристиками должен обладать правильно разработанный KPI?
27.	Noto'g'ri ishlab chiqilgan KPIga misol keltiring va uni qanday yaxshilash mumkinligini tushuntiring / Приведите пример неправильно разработанного KPI и объясните, как его можно улучшить
28.	Strategik tashabbuslar ijrosini choraklik asosda qanday monitoring qilasiz? / Как вы будете проводить ежеквартальный мониторинг исполнения стратегических инициатив?
29.	Strategiyani amalga oshirish jarayonida qaysi holatlar rahbariyat darajasiga eskalatsiya qilinishi kerak? / Какие ситуации в процессе реализации стратегии должны быть эскалированы на уровень руководства?
30.	Agar tashabbus kechikayotgan bo'lsa, uni rahbariyatga kiritishdan oldin nima qilasiz? / Если инициатива задерживается, что вы

	предпримете до вынесения вопроса на рассмотрение руководства?
31.	Bir nechta tashabbuslar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni qanday boshqarasiz? / Как вы будете управлять взаимосвязями между несколькими инициативами?
32.	Nima uchun strategiya nafaqat xususiy kompaniyalar, balki davlat institutlari uchun ham muhim? / Почему стратегия важна не только для частных компаний, но и для государственных институтов?
33.	Besh yillik institutsional strategiyani amalga oshirishda qanday xavflar yuzaga kelishi mumkin? / Какие риски могут возникнуть при реализации пятилетней институциональной стратегии?
34.	Tarkibiy bo‘linmalar to‘liq yoki sifatli ma’lumot bermasa, qanday yo‘l tutasiz? / Как вы поступите, если структурные подразделения не предоставляют информацию в полном объеме или надлежащего качества?
35.	Strategik rivojlanish va loyihalarni boshqarish departamenti boshqa tarkibiy bo‘linmalarga bevosita rahbarlik qilmasa, qanday qilib ularning ishini muvofiqlashtirishi mumkin? / Как Департамент стратегического развития и управления проектами может координировать работу других структурных подразделений, если он не осуществляет непосредственное руководство над ними?
36.	Strategik tashabbus va oddiy operatsion vazifa o‘rtasidagi farq nimada? / В чем разница между стратегической инициативой и обычной операционной задачей?
37.	Turli tarkibiy bo‘linmalardan bir nechta (misol tariqasida 50 ta) tashabbuslar kelib tushdi, lekin resurslar cheklangan. Rahbariyat uchun qisqa ro‘yxatni qanday shakllantirasiz?
38.	Strategik tashabbus 6 oyga kechikmoqda. Mas’ul tarkibiy bo‘linma buni tashqi omillar bilan izohlamogda. Siz nima qilasiz?
39.	Strategik KPI ko‘rsatkichi bajarilgan. Lekin amalda tashkilot faoliyatida sezilarli yaxshilanish kuzatilmagan. Bu nimani anglatadi va nima qilasiz?
40.	Как вы организуете свою работу при большом количестве параллельных задач? / Ko‘p sonli parallel vazifalar mavjud bo‘lgan sharoitda o‘z ishingizni qanday tashkil qilasiz?
41.	Представьте, что правила, процессы или приоритеты часто меняются. Как бы вы адаптировались к такой ситуации? / Qoidalar, jarayonlar yoki ustuvor yo‘nalishlar tez-tez o‘zgarib turadigan vaziyatni tasavvur qiling. Bunday holatga qanday moslashgan bo‘lardingiz?
42.	Как вы определяете, что изменение действительно внедрено и работает, а не осталось формальной инициативой? / O‘zgarish haqiqatan ham joriy etilgani va ishlayotganini, shunchaki rasmiy tashabbus bo‘lib qolmaganini qanday aniqlaysiz?
43.	В чём, на ваш взгляд, разница между «выполнить задачу» и «достичь результата»? / Sizningcha, “vazifani bajarish” va “natijaga erishish” o‘rtasidagi farq nimada?

44.	Как бы вы выстраивали баланс между контролем проектных команд и их самостоятельностью, чтобы сохранить дисциплину, но не замедлить реализацию проекта? / Intizom saqlagan va loyihaning amalga oshirilishi sekinlashtirilmagan holda, loyiha jamoalarini nazorat qilish va ularning mustaqilligi o'rtasidagi muvozanatni qanday yo'lga qo'ygan bo'lardingiz?
45.	Какие качества, навыки и подходы, на ваш взгляд, наиболее важны для сотрудника Офиса трансформации? / Sizningcha, Transformatsiya ofisi xodimi uchun qanday fazilatlar, ko'nikmalar va yondashuvlar eng muhim hisoblanadi?
46.	Если команда или подразделение начинает демонстрировать «усталость от изменений» и теряет вовлечённость, какие действия вы бы предприняли? / Agar jamoa yoki tarkibiy bo'linma "o'zgarishlardan charchash" alomatlarini namoyon eta boshlasa va jalb etilganlik darajasi pasaysa, qanday choralar ko'rgan bo'lardingiz?
47.	Представьте, что проект, который вы сопровождаете, начинает отклоняться от целей, сроков или KPI. Какие ваши первые действия? / Tasavvur qiling, siz kuzatib borayotgan loyiha o'z maqsadlari, muddatlari yoki KPI ko'rsatkichlaridan chetga chiqa boshladi. Sizning dastlabki harakatlaringiz qanday bo'ladi?
48.	Если проектная команда оказывается в кризисной ситуации — срыв сроков, снижение доверия, рост конфликтов — как бы вы помогли стабилизировать работу? / Agar loyiha jamoasi inqirozli vaziyatga tushib qolsa — muddatlarning buzilishi, ishonchning pasayishi, nizolarning ko'payishi — ishni barqarorlashtirishga qanday yordam bergan bo'lardingiz?
49.	Если вы видите риск для проекта, который остальные участники недооценивают, как бы вы доносили свою позицию? / Agar siz loyihaning, boshqa ishtirokchilar yetarlicha baholamaydigan xavfni ko'rsangiz, o'z pozitsiyangizni qanday yetkazgan bo'lardingiz?
50.	Как бы вы выстраивали взаимодействие с командами или руководителями, которые формально поддерживают изменения, но фактически сопротивляются им? / O'zgarishlarni rasmiy ravishda qo'llab-quvvatlaydigan, biroq amalda ularga qarshilik ko'rsatayotgan jamoalar yoki rahbarlar bilan hamkorlikni qanday yo'lga qo'ygan bo'lardingiz?
51.	Представьте, что между подразделениями возникает конфликт интересов в рамках трансформационного проекта. Как бы вы выстраивали коммуникацию для поиска решения? / Transformatsion loyiha doirasida tarkibiy bo'linmalar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganini tasavvur qiling. Yechim topish uchun kommunikatsiyani qanday yo'lga qo'ygan bo'lardingiz?
52.	Как бы вы объясняли сотрудникам необходимость изменений, если они не видят в них ценности для своей ежедневной работы? / Agar xodimlar o'zgarishlarning kundalik ish faoliyati uchun qiymatini ko'rmayotgan bo'lsa, ularga o'zgarishlar zarurligini qanday tushuntirgan bo'lardingiz?
Korporativ muvozanat va ijodiy-ma'rifiy tashabbuslar xizmati	
1.	Markaziy bank tizimida barcha ichki hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlarning davlat tilida yuritilishini to'liq ta'minlash uchun

	qanday amaliy choralar ko‘rish kerak deb o‘ylaysiz?
2.	Bank sohasidagi murakkab iqtisodiy terminlarni (masalan: tavakkalchilikka asoslangan nazorat, unifikatsiya, mutanosib tartibga solish) o‘zbek tilidagi muqobillarini to‘g‘ri qo‘llash va xodimlar orasida ommalashtirish uchun qanday usullardan foydalangan bo‘lardingiz?
3.	Xodimlarning o‘zbek tili grammatikasi va nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan qanday interaktiv loyihalarni taklif qila olasiz?
4.	Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarini shunchaki rasmiyatchilik yoki ma’ruza shaklida emas, balki xodimlarga haqiqiy motivatsiya beradigan formatga qanday o‘tkazish mumkin?
5.	Bank xodimlarining milliy g‘oya, vatanparvarlik va davlat ramzlariga bo‘lgan hurmatini shakllantirishda qaysi zamonaviy media-vositalardan (podkast, video-kontent) foydalanish samaraliroq?
6.	O‘zbekistonda davlat tiliga oid qonunchilik talablari buzilgan holatlarda xodimlarga nisbatan qanday tushuntirish ishlarini olib borishni to‘g‘ri deb hisoblaysiz?
7.	Jadid ziyolilarining iqtisodiy va ijtimoiy qarashlarini bugungi bank korporativ madaniyatiga qanday integratsiya qilish mumkin? Qanday g‘oyalaringiz bor?
8.	Tarixiy madaniy merosimiz va umuminsoniy qadriyatlarni bank tizimida yangi ish boshlayotgan yosh xodimlarga adaptatsiya jarayonida qanday singdirish mumkin?
9.	Muhim milliy bayramlar (Mustaqillik kuni, Navro‘z va hkz) munosabati bilan bankda o‘tkaziladigan tadbirlarning ssenariysini tuzishda qaysi jihatlarga ko‘proq urg‘u bergan bo‘lardingiz?
10.	Davlat tili bo‘yicha xodimlarning bilim darajasini baholovchi adolatli va rag‘batlantiruvchi ichki tizimni (KPI) qanday tasavvur qilasiz?
11.	Moliya va bank sohasida ayollarning yetakchilik salohiyatini oshirish hamda ularni yuqori menejment lavozimlariga tayyorlash uchun qanday maxsus dasturlarni yo‘lga qo‘yish zarur?
12.	Bankda “Glass Ceiling” (Oyna shift — ayollarning martaba poyonlaridan ko‘tarilishidagi ko‘rinmas to‘siqlar) muammosiga duch kelmaslik uchun qanday korporativ muhit yaratish kerak?
13.	Ish va shaxsiy hayot balansi: Yosh onalarni yoki oilali ayol xodimlarni bankdagi og‘ir ish rejimida stressga tushmasliklari uchun qanday qo‘llab-quvvatlash mumkin?
14.	Markaziy bankda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha korporativ “Gender strategiyasi”ni ishlab chiqishda birinchi navbatda nimalarga e’tibor qaratgan bo‘lardingiz?
15.	Jamoda gender kamsitish yoki nohaqlik holatlari yuzaga kelsa (yoki shunday shikoyat tushsa), muammoni qanday qilib konfidentsial va xolis hal qilasiz?
16.	Erkak xodimlarni gender tenglik mavzusidagi loyihalarga jalb qilish va ularning bu boradagi tushunchalarini to‘g‘ri shakllantirish

	uchun qanday targ‘ibot usullaridan foydalangan ma’qul?
17.	Bank sohasida faoliyat yuritayotgan eng muvaffaqiyatli ayollar tajribasini ommalashtirish jamoaga qanday ta’sir qiladi deb o‘ylaysiz va buni qanday tashkil qilasiz?
18.	Ishga qabul qilish jarayonida gender xolislikni ta’minlash va faqat nomzodning salohiyatiga baho berish tizimini qanday takomillashtirish mumkin?
19.	Ayol xodimlarning moliyaviy va raqamli savodxonligini yanada oshirishga qaratilgan qanday ijtimoiy loyihalariningiz bor?
20.	“Yilning eng faol bankir ayoli” kabi ichki tanlovlarni tashkil etilsa, shaffoflik va motivatsiyani qanday uyg‘unlashtirasiz?
21.	Ko‘pincha bank sohasi juda qat’iy, raqamlar va qoidalar bilan bog‘liq muhit deb bilinadi
22.	Markaziy bank xodimlarining ichki innovatsion g‘oyalarini to‘playdigan va ularni tahlil qiladigan “G‘oyalar qutisi” platformasini tashkil etish sizga topshirilsa, uni qanday tashkil qilgan bo‘lardingiz?
23.	Xodimlarda kreativlikni oshirish uchun korporativ dizayn-fikrlash (Design Thinking) yoki breynstorming sessiyalarini qanday formatda o‘tkazishni taklif qilasiz?
24.	Agar xodim juda yaxshi ijodiy g‘oya (masalan, yangi media loyiha yoki korporativ madaniyatni o‘zgartirish taklifi) bilan chiqsa-yu, lekin uning bevosita rahbari buni rad etsa, vaziyatni qanday boshqarasiz?
25.	Bank ichki hayotini yorituvchi kreativ va nostandart kontentlar (korporativ blog, video-intervyular, infografikalar) tayyorlash bo‘yicha qanday ko‘nikmalarga egasiz?
26.	Jamoadan monoton ish rejimidan charchash holatlarining oldini olish uchun qanday ijodiy chellenjlar yoki Art-terapiya loyihalarini o‘tkazish mumkin?
27.	Markaziy bankning ijtimoiy mas’uliyatini ko‘rsatib beruvchi qanday ijodiy-ijtimoiy aksiyalarni (masalan: ekologik, xayriya yoki madaniy loyihalar) taklif qila olasiz?
28.	Xodimlarning ishdan bo‘sh vaqtlarida o‘z ijodiy salohiyatlarini (rassomchilik, foto, dizayn, musiqiy iqtidor) ko‘rsatishlari uchun qanday platforma yaratish kerak?
29.	Mashhur ijodkorlar, san’atshunoslar yoki innovatorlar bilan bank xodimlarining uchrashuvlarini tashkil qilish tizimini qanday yo‘lga qo‘ymoqchisiz?
30.	Ijodiy loyihalar uchun ajratilgan byudjetni minimal xarajatlar bilan eng yuqori natijaga (ROI) erishadigan qilib qanday rejalashtirasiz?
31.	Markaziy bank ichida muayyan konseptual yo‘nalishga ega bo‘lgan jonli kitob klubini qanday tashkil qilgan bo‘lardingiz? Unda muhokamalar qanday o‘tadi?
32.	Bank xodimlarining aksariyati ish ko‘pligidan kitob o‘qishga vaqt topolmasligini aytishadi
33.	Markaziy bankning zamonaviy, raqamli va shinam ichki kutubxona tizimini yaratish bo‘yicha qanday vizual yoki tizimli

	g'oyalaringiz bor?
34.	Kitobxonlikni targ'ib qilishda jahon klassikasi va zamonaviy adabiyot bilan bir qatorda, professional moliyaviy-iqtisodiy adabiyotlarni ham mutolaa qilish muvozanatini qanday ushlaysiz?
35.	Xodimlar o'rtasida "Eng yaxshi kitobxon jamoa/boshqarma" tanlovini o'tkazish sizga yuklatilsa, qanday adolatli va qiziqarli shartlarini tuza olasiz?
36.	Audio kitoblar va elektron kitobxonlik formatini bank xodimlari ichki mobil ilovalari yoki platformalariga qanday integratsiya qilish mumkin?
37.	Mashhur yozuvchi va shoirlar, shuningdek, kitobxon blogerlar bilan bankda intellektual suhbatlar hamda imzo kunlarini qanday rejalashtirasiz?
38.	"Kitob almashish" madaniyatini bank xodimlari orasida ommalashtirish uchun qanday qiziqarli kreativ yechimingiz bor?
39.	Moliyaviy savodxonlikka oid eng xaridorgir va jahonda tan olingan kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilish va ichki nashrlarni yo'lga qo'yish tashabbusini qanday baholaysiz va buni qanday boshqargan bo'lardingiz?
40.	Farzandli bo'lgan bank xodimlarining oilasida ham kitobxonlikni targ'ib qilish korporativ sadoqatga qanday ta'sir qiladi deb o'ylaysiz?
41.	Markaziy bank tizimidagi yosh xodimlarning (ayniqsa, Zed va Alfa avlod vakillarining) salohiyatini aniqlash va ularni tizimli qo'llab-quvvatlash bo'yicha strategiyani qanday qurasiz?
42.	Bankda yangi ish boshlagan yoshlar uchun "ustoz-shogird" tizimini rasmiyatchilikdan yiroq, haqiqiy natija beradigan darajaga qanday olib chiqish mumkin?
43.	"Yosh bankirlar forumi" yoki yoshlar o'rtasida intellektual o'yinlarni (Zakovat, Breyn-ring) tizimli tashkil etish bo'yicha qanday loyiha rejangiz bor?
44.	Ofisda o'tirib ishlaydigan bank xodimlari orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va jismoniy faollikni oshirish uchun qanday mini-sport tanaffuslarini yo'lga qo'yish mumkin?
45.	Bank ichki sport musobaqalarini (masalan: mini-futbol, stol tennisi, shaxmat, kiber-sport) shunchaki o'yin emas, balki jamoani jipslashtiruvchi vositaga qanday aylantirasiz?
46.	Yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik, korruptsiyaga qarshi murosasizlik va bank sirini saqlash madaniyatini shakllantirishda Yoshlar ittifoqi yetakchisi sifatidagi rolingizni qanday ko'rasiz?
47.	Bank xodimlarining o'zaro hamjihatligini oshirish maqsadida shahardan tashqarida yoki ochiq havoda o'tkaziladigan sport va ekologik yo'nalishdagi "Eco-teambuilding" loyihasini qanday tashkil qilgan bo'lardingiz?
48.	Iqtidorli yosh xodimlarni xorijiy markaziy banklar va xalqaro moliya institutlarining yoshlar dasturlariga tayyorlash hamda tavsiya etish mexanizmini qanday yo'lga qo'yish kerak?

49.	Sport musobaqalarida yoki intellektual loyihalarda past natija ko'rsatgan jamoalarda g'alabaga bo'lgan motivatsiyani so'ndirmaslik uchun qanday "korporativ qo'llab-quvvatlash" taktikasini qo'llaysiz?
50.	Yoshlarga oid davlat siyosatining ijrosini ta'minlash borasida Markaziy bankda amalga oshirilayotgan ishlarni davlat darajasidagi tanlovlar doirasida munosib ko'rsatib berish uchun qanday tizimli tayyorgarlik ko'rish kerak?
51.	Gender tenglik iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir qiladi?
52.	Markaziy bankda gender siyosati qanday qilib moliyaviy inklyuziyani oshirishi mumkin?
53.	Gender tenglik bo'yicha xalqaro tajribadan qaysi modellarni Markaziy bankda joriy qilgan bo'lardingiz?
54.	Markaziy bankda gender siyosati qanday qilib moliyaviy inklyuziyani oshirishi mumkin?
55.	Genderga oid qaror qabul qilishda ma'lumotlar tahlili qanday ahamiyatga ega?
56.	Gender siyosatiga qarshi munosabat bildirgan rahbar bilan qanday ishlaysiz?
57.	Gender auditini amalga oshirishda eng katta xavflar nimalar?
58.	Qanday holatda Gender Audit natijalari noto'g'ri bo'lishi mumkin?
59.	Genderga oid KPI noto'g'ri tanlansa, qanday oqibatlar kelib chiqadi?
60.	Agar Gender KPI bajarilmagan bo'lsa, lekin umumiy samaradorlik yuqori bo'lsa, qanday qaror qabul qilasiz?
61.	Inklyuziv tashkilot madaniyatini shakllantirish uchun qanday choralar ko'rasiz?
62.	Agar xodim "gender tenglik faqat ayollarni qo'llab-quvvatlash" deb hisoblasa, unga qanday tushuntirish berasiz?
63.	O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qanday dasturlar amalga oshirilmoqda?
64.	O'zbekistonda gender tengligi masalalari bilan qaysi davlat organlari shug'ullanadi?
65.	Gender tengligiga erishilganda jamiyat qanday afzalliklarga ega bo'ladi?
66.	Raqamli texnologiyalar gender tengligini rivojlantirishga qanday yordam berishi mumkin?
67.	"Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning asosiy maqsadi nima?
68.	Gender tengligi qaysi huquqiy hujjatda asosiy tamoyil sifatida mustahkamlangan?
69.	Gender stereotiplari nima?
70.	Gender tengligi tushunchasi nimani anglatadi?
71.	Gender tengligining asosiy maqsadi nima?
72.	Gender meynstriming nima?
73.	Inklyuziv HR siyosati qanday elementlarni o'z ichiga olishi lozim?
74.	Markaziy bankda gender siyosati qaysi yo'nalishlarga ta'sir qilishi mumkin?
75.	Gender tahlilidan asosiy maqsad nima?
76.	Qaysi holat bilvosita diskriminatsiya hisoblanadi?

77.	Gender auditining vazifasi nima?
78.	Inklyuziv ish muhiti nima?
79.	Genderga oid ma'lumotlar qanday yig'ilishi lozim?
80.	Erkak va ayol xodimlarni ish haqida farq aniqlansa, qanday tahlil o'tkazasiz?
81.	Gender Pay Gap va Equal Pay bir xil tushunchami?
82.	Gender bo'yicha yillik hisobot tuzishda qaysi ma'lumotlar kiritiladi?
83.	Genderga ta'sirni baholash uchun qanday asosiy indikatorlardan foydalanasiz?
84.	Human Resources Gender Index (HRGI) qanday ko'rsatkichlardan tashkil topadi?
85.	Gender Equality Index bilan Gender Inequality Index o'rtasida qanday farq bor?
86.	SIGI (Social Institutions and Gender Index) qanday metodologiyaga asoslangan?
Murojaatlar bilan ishlash departamenti	
1.	Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
2.	Markaziy bank qanday vazifalarni bajaradi?
3.	Pul-kredit siyosati nima?
4.	Bank faoliyatiga tarif bering
5.	Markaziy bank va tijorat banki o'rtasidagi farq nima?
6.	Bank tizimi nima?
7.	To'lov tizimi nima?
8.	Naqd pulsiz hisob-kitob nima?
9.	Valyuta kursi nima?
10.	Raqamli bank xizmatlari nima?
11.	Moliyaviy savodxonlik nima?
12.	Bank siri nima?
13.	Ishonch raqami operatorining asosiy vazifasi nima?
14.	Murojaat deganda nima tushuniladi?
15.	Murojaat bilan ishlashning birinchi bosqichi nima?
16.	Mijoz bilan muloqotda nimalarga e'tibor berish kerak?
17.	Agar mijoz jahli chiqib gapirsa nima qilasiz?
18.	Agar savol vakolatingizga kirmasa nima qilasiz?
19.	Mijozning muammosini qanday aniqlaysiz?

20.	Maxfiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berish mumkinmi?
21.	Stressli vaziyatlarda qanday ishlaysiz?
22.	Fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashda qanday tamoyillarga amal qilinadi?
23.	Call-markaz faoliyatining asosiy maqsadi nima?
24.	Shikoyat, taklif, ariza, anonym murojaat – nima?
Statistika va to'lov balansi departamenti / Tadqiqotlar va tahlil departamenti	
1.	Markaziy bankning asosiy maqsadlari va funksiyalari nimalardan iborat?
2.	Yalpi ichki mahsulot (GDP) va yalpi milliy mahsulot (GNP) nima, qanday hisoblanadi va ular o'rtasidagi farq nimada?
3.	Iste'mol narxlari indeksi (CPI) tarkibi qanday shakllanadi va basketga nimalardan tashkil topadi?
4.	Iste'mol narxlari indeksi (CPI) va Yalpi ichki mahsulot (GDP) deflator o'rtasidagi farq nimada?
5.	Laspeyres va Paashe indeksleri o'rtasidagi farq nimada?
6.	Inflyatsiyaga ta'sir qiluvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
7.	Deflyatsiya nima va u iqtisodiyotga qanday ta'sir qilishi mumkin? Uning dezinflyatsiyadan farqi nimada?
8.	Nima uchun Markaziy bank inflyatsion kutilmalarga e'tibor qaratadi?
9.	Inflation targeting nima va uning asosiy tamoyillari qanday?
10.	Nima uchun Markaziy bank har doim bir vaqtning o'zida inflyatsiyani pasaytirish va yuqori iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga erisha olmaydi?
11.	Foiz stavkasi o'zgarishi transmission kanallar orqali makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga qanday ta'sir qiladi?
12.	Nima uchun inflyatsiya pasayishni boshlagan bo'lsa ham, Markaziy bank asosiy stavkani pasaytirmasligi mumkin?
13.	Monetar siyosat qat'iylashyaptimi yoki yumshayaptimi? Buni qaysi ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin?
14.	Taylor rule nima va u qanday qo'llaniladi?
15.	Open market operations nima va ular monetar siyosatda qanday qo'llaniladi?
16.	UZONIA foiz stavkasi nima va u bank tizimi likvidligi bilan qanday bog'liq?
17.	Asosiy stavka o'zgarishi qimmatli qog'ozlar bozoriga qanday ta'sir qiladi?
18.	Derivativlar (derivatives) nima va ular moliya bozorida nima uchun qo'llaniladi?
19.	Bank likvidligini baholashda Likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR) va Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR) ko'rsatkichlari nimani anglatadi?
20.	Fillips egri chizig'i (Phillips curve) nimani ko'rsatadi va inflyatsiya bilan ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni qanday izohlaydi?
21.	Potensial yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi (Potential GDP growth) nimani anglatadi?
22.	Yuqori iqtisodiy o'sish har doim ijobiy signal hisoblanadimi? Iqtisodiyot o'zining potensial darajasidan tezroq o'ssa, qanday

	xavflar yuzaga kelishi mumkin?
23.	Jami omillar unumdorligi o'sishi (total factor productivity growth) bilan ishlab chiqarish tafovuti (output gap) o'rtasidagi farq nimada?
24.	Ish haqi unumdorlikdan tezroq o'ssa, bu qanday makroiqtisodiy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin?
25.	Fiskal taqchillikning oshishi inflyatsiya va yalpi ichki mahsulotga qanday ta'sir ko'rsatadi?
26.	Fiskal taqchillikni ichki va tashqi moliyalashtirish o'rtasidagi farqlar hamda ularning afzalliklari nimalardan iborat?
27.	To'lov balansi tarkibi qanday va u qaysi asosiy hisobvaraqlardan tashkil topadi?
28.	Markaziy bankning oltin-valyuta zaxiralari tarkibiga nimalar kiradi?
29.	Savdo hamkorlari valyutasining qadrsizlanishi tashqi savdoga qanday ta'sir qiladi?
30.	Almashuv kursi inflyatsiyaga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin? Bunda almashuv kursi qadrsizlanishi va mustahkamlanishi import, eksportga qanday ta'sir qiladi
31.	Almashuv kursi 10%ga qadrsizlandi, ammo inflyatsiya deyarli o'zgarmadi
32.	Makroiqtisodiy trilemma - imkonsiz uchlik (impossible trinity) nimani anglatadi?
33.	Yashirin iqtisodiyot nima? Naqdsiz hisob-kitoblarning kengayishi yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga yordam beradimi?
34.	Tovar narxi oshgan, ammo talab hajmi deyarli o'zgarmagan bo'lsa, bu talab elastikligi haqida nimani anglatadi? Giffen tovarlari nima?
35.	Marginal utility nima va nima uchun tovar iste'moli oshgani sari u odatda pasayib boradi?
36.	Ikkita o'yin kubigi tashlanganda jami nechta mumkin bo'lgan natija mavjud?
37.	Funksiyaning ikkinchi hosilasi nimani ko'rsatadi?
38.	Egri chiziq ostidagi maydonni qanday talqin qilish mumkin?
39.	Kobb-Duglas (Cobb-Douglas) ishlab chiqarish funksiyasi iqtisodiy tahlilda nimani ko'rsatadi?
40.	Xususiy hosila nima va u oddiy hosiladan nimasi bilan farq qiladi?
41.	O'rtacha qiymat, median va moda bir biridan qanday farq qiladi? Qaysi holatlarda median o'rtacha qiymatga nisbatan ma'lumotlarni yaxshiroq ifodalaydi?
42.	Asimmetrik taqsimot nima va u statistik xulosalarga qanday ta'sir qilishi mumkin?
43.	Standart og'ish (standard deviation) nima va u ma'lumotlar tahlilida nima uchun qo'llaniladi?
44.	Outliers nima va ular tahlil natijalariga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?
45.	Inflyatsiya va almashuv kursi o'rtasida yuqori korrelyatsiya bo'lsa, darhol almashuv kursi inflyatsiyaning sababi deb xulosa qilish mumkinmi?
46.	Ma'lumotlarni aproksimatsiya qilish nimani anglatadi va aproksimatsiya qilingan qiymat real qiymatdan nimasi bilan farq qiladi?

47.	Eng kichik kvadratlar usuli (Ordinary Least Squares, OLS) nima va u regression analizda nima uchun qo'llaniladi?
48.	Time series data panel data dan nimasi bilan farq qiladi?
49.	Time series data tahlilida mavsumiylikni hisobga olish nima uchun muhim?
50.	Dinamik stoxastik umumiy muvozanat modeli (Dynamic Stochastic General Equilibrium, DSGE) nima va u markaziy banklarda nima uchun qo'llaniladi?
51.	Bir nechta o'zgaruvchining birgalikdagi taqsimoti va shartli kutilmalar prognozlashda qanday ahamiyat kasb etadi?
52.	Makroiqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilishda ehtimollik taqsimotlari va shartli momentlar qanday ahamiyatga ega?
53.	Katta sonlar qonuni va markaziy limit teoremasi statistik xulosa chiqarishda qanday asos yaratadi?
54.	Nuqtaviy va interval baholashda xolislik, samaradorlik va konsistentlik tushunchalari qanday talqin qilinadi?
55.	Gipotezalarni tekshirishda statistik ahamiyatlilik va siyosiy jihatdan ahamiyatlilik o'rtasida qanday farq bor?
56.	Kovariatsiya, korrelyatsiya va dinamik bog'liqlik makroiqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatni baholashda qanday qo'llaniladi?
57.	Tanlanma, vaznlar va reprezentativlik muammolari makroiqtisodiy hamda so'rov ma'lumotlarida qanday namoyon bo'ladi?
58.	Indeksar, bazaviy davr va vaznlar o'zgarishi narxlar statistikasi hamda real ko'rsatkichlarni talqin qilishga qanday ta'sir qiladi?
59.	Mavsumiy tuzatish, trend va sikl komponentlarini ajratish makroiqtisodiy tahlilda qanday qo'llaniladi?
60.	Vaqt qatorlarida statsionarlik, persistentlik va avtokorrelyatsiya tushunchalari nima uchun muhim?
